

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 141 (1467), 2025-yil 11-iyul, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



MAMLAKATIMIZDA BUNYODKORLIK VA AHOLI BANDLIGIGA QARATILGAN HAR BIR YANGI TASHABBUS HAMISHA QO'LLAB-QUVVATLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-iyul kuni Toshkent shahridagi bunyodkorlik ishlari, aholining turmush sharoiti, sanoat korxonalarini faoliyati bilan tanishdi.



Bu safargi yo'nalish Shayxontohur va Chilonzor tumanlarini qamrab oldi. Ularni Bunyodkor ko'chasi bog'lab turadi. Ushbu markaziy ko'chada san'at va madaniyat maskanlari, turli idoralari, ko'p qavatli uylar, supermarket va restoranlar joylashgan. Bu salohiyatdan foydalanib, uning 1,5 kilometr qismi xizmat ko'rsatish va gastroturnizm ko'chasiga aylantirildi.

Davlatimiz rahbari jamoatchilik vakillari bilan birga bu yerdagi sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Yo'l bo'yida obod qilingan. Ajoyib landshaft dizayni, favvoralar, turfa chiroqlar hududga yanada ko'rk bag'ishlagan. Odamlar sayr qilishi, ovqatlanishi, mazmunli dam olishi uchun barcha qulayliklar yaratilgan.

Shu maqsadda bu yerdagi 90 ta tadbirkorlik subyekti tunu kun ishlash tartibiga o'tkazildi. Shundan 45 ta korxonaga yangi tashkil etildi. 500 kishi ish bilan ta'minlandi.

Ko'chaga yondosh hududdagi Kamolon, Yangi Kamolon va Kamolon darvoza mahallalarida 18 mingga yaqin aholi yashaydi. Bu o'zgarishlar, avvalo, shu insonlar turmushida seziladi. Qolaversa, hozir bu joyga yiliga 255 ming mehmon tashrif buyurmoqda. Endi ularning sonini yiliga 1 millionga yetkazish uchun sharoit bor.

So'nggi yillarda yurtimizda turizm sohasida 2 mingdan ortiq yangi tadbirkorlik

boshlandi. O'tgan yili xorijiy sayyohlar tashrifi ilk bor 10 milliondan oshdi. Hududlarda sayohat va servis infratuzilmasi yaxshi rivojlanayotgan. Turizm qishloqlari, mehmon uylari, gastronomik ko'chalar qo'llab-quvvatlanayapti.

Poytaxtimizning Mirobod, Olmazor, Chilonzor, Yakkasaroy, Yangiyahoy tumanlarida shunday gavjum ko'chalar tashkil etilgan. Bunyodkor ko'chasi mazkur turizm halqasining bir qismi bo'ladi. Umuman, Toshkent shahrida 26 ta ko'chani tunu kun ishlaydigan gavjum ko'chaga aylantirish, 24 soat ishlaydigan savdo nuqtalarini mingtaga ko'paytirish rejalashtirilgan.

Shu yerda zamonaviy bekatlar hamda avtoturargohlar taqdimoti bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Shayxontohur tumanidagi Yangi Kamolon mahallasida bo'ldi.

Mamlakatimizdagi islohotlar "nafasi" har bir hududga kirib boryapti. Aholi bandligi va turmush madaniyatiga qaratilayotgan e'tibor ushbu mahallada ham namoyon. Ko'p qavatli uylar, do'konlar, fuqarolar yig'ini binosi zamonaviy qiyofaga ega. Ichki yo'llar tekislanib, atrofi ko'klamzorlashtirilgan. So'lim sayilgoh va piyodalari yo'lga, nuroniyalar oromgohi, sport va bolalar maydonchalari barpo etilgan.

Yangi Kamolon mahallasida 4 ming 600 nafardan ziyod aholi yashaydi. 60 dan ortiq savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida mahalla yoshlari ish bilan band. Bu yil hunarmandlar maskani, dala mahsulotlari va qandolatchilik do'konlari, novvoyxona tashkil etildi, xususiy tibbiyot punkti ochildi. Natijada mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylandi.

Shu yerda Shayxontohur tumani "Islohotlar shtabi" faoliyati to'g'risida axborot berildi.

Shayxontohurda hunarmandchilik azaldan mavjud bo'lgan. Bugun ham tumanda odamlarni ish bilan, daromad bilan ta'minlashda bu katta manba. Shuning uchun Shayxontohur misolida xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha yangi chora-tadbirlar rejasini qabul qilamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Aholi xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarini oldini olish maqsadida mahalla inspektori xonasida situatsion markaz tashkil etilgan. Unga ko'p qavatli uylarning yo'laklaridagi kuzatuv kameralari va ichki ishlar tizimining xavfsizlik dasturlari bog'langan. Bu yil mahallada bironta ham jinoyat sodir bo'lmagan.

"Yangi Kamolon" boshqaruv servis kompaniyasi mahalladagi 21 ta ko'p qavatli

uyga xizmat ko'rsatadi. Ustalar va maxsus texnikalar doim shay holatda. Hisob-kitoblarda billing tizimi yo'lga qo'yilgan. Bu yil markaziy issiqlik quvurlari izolatsiya qilindi, elektr tarmoqlari va uylarning yo'laklari ta'mirlandi. Ayrim uylarga yangi liftlar o'rnatildi.

Davlatimiz rahbari kelgusida boshqaruv servis kompaniyasi binolarini ko'p qavatli qilib qurib, yoshlar uchun kasb-hunar o'quvlarini, maishiy xizmat shoxobchalarini joylashtirish bo'yicha ko'rsatma berdi. Bu yerdagidek kichik kutubxonalarini boshqa mahallalarda ham tashkil etish muhimligi ta'kidlandi.

Mahalla ayvonida aholi bilan samimiy suhbat bo'ldi.

So'nggi yillarda ko'p korxonalar ochildi, iqtisodiyot o'syapti. Shu bilan birga, yoshlarimiz ham yetishib kelyapti. Ularning ta'lim-tarbiyasi, sog'lig'i, ish o'rinlarini hozirdan o'ylashimiz kerak. Shuning uchun bu yil Toshkent shahriga

8 milliard dollar investitsiya olib kelyapmiz. Buning hisobidan Shayxontohurda ham yangi-yangi ish joylari, ta'lim maskanlari, infratuzilma inshootlari yaratiladi, — dedi Prezident.

Nuroniy otaxon va onaxonlar yurtimizdagi o'zgarishlardan xursandligini ta'kidlab, xalqimizga tinchlik-farovonlik tilab duolar qildi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev tumandagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga bordi.

Mamlakatimizda ijtimoiy davlat, ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvor. Ushbu qadriyatlar asosida barcha hududlarda "Inson" markazlari ochilib, mehr va ko'mak tizimi aholiga yaqinlashtirilmoqda.

Markazda 12 toifadagi muhojir insonlarga 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiladi. Buning uchun muassasada zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Murojaatlarni qabul qilish, ehtiyojni baholash, xizmatni belgilash va xizmat ko'rsatish jarayonlari insonlarga qulay tarzda yo'lga qo'yilgan.

Eng muhimi, endilikda vazifa bir marta yordam bilan tugamaydi. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchining keyingi holati, o'zini o'nglashi ham monitoring qilib boriladi. Mazkur barcha jarayonlar raqamlashtirilgan va daxldor tashkilotlar bilan bog'langan.

Shayxontohurdagi markazda 25 nafar mutaxassis hamda mahallalarda 51 nafar ijtimoiy xodim faoliyat ko'rsatmoqda. Nogiroligi bo'lgan bolalar va shaxslar, yolg'iz keksalar bilan manzilli tarzda ish yuritilmoqda.

► Davomi 2-beta

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O'TTIZ TO'RT YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'RSIDA

Dunyodagi har bir davlatning milliy suvereniteti va mustaqilligi shu mamlakatning xalqaro huquq subyekti sifatida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi, o'z xalqining tinch va farovon hayotini, uning eng muhim manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladigan mustahkam siyosiy-ijtimoiy zamin va kuch-qudrat manbaidir.

Hech shubhasiz, 1991-yil 31-avgustda mard va olijanob xalqimizning xohishirodasi va azmu qarori bilan qo'lga kiritilgan milliy istiqlolimiz Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi barcha islohotlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan bugungi tarixiy sharoitda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aynan mustaqillik, barcha siyosiy-huquqiy kafolatlarni o'zida mujassam etgan holda, "O'zbekiston — 2030" strategiyamizni amalga oshirish, jamiyatimizda tinchlik, do'stlik va hamjihatlik muhitini kuchaytirish, inson qadri, huquq va manfaatlarini ta'minlash, mintaqamizda yaxshi o'qshchilik aloqalarini yanada rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan faol hamkorlik qilish, Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda beqiyos tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilligining ana shunday ulkan ahamiyatini inobatga olib, milliy istiqlolimizning o'ttiz to'rt yillik shonli sanasini Yangi O'zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro'-e'tiboriga har tomonlama munosib tarzda, yuksak saviyada nishonlash maqsadida **qaror qilaman:**

1. Madaniyat vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ishlab chiqilgan **"Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!"** degan ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan bayram tadbirlarining g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

2. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda — Respublika

komissiyasi) tuzilsin hamda uning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika komissiyasi (A.Aripov):

a) O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz yillik bayrami (keyingi o'rinlarda — Mustaqillik bayrami) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlanishini ta'minlash uchun Konsepsiyaning asosiy ma'no-mazmuni va yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda tegishli chora-tadbirlar dasturlarining ishlab chiqilishi va bajarilishini ta'minlasin;

b) joylarda Mustaqillik bayramining yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlash borasidagi ahamiyatiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, umumxalq sayillari, madaniyat va sport tadbirlarini samarali o'tkazish maqsadida taniqli ilm-fan namoyandalari, ijodkorlar, madaniyat va san'at arboblari, sportchilar, jamoatchilik vakillaridan iborat targ'ibot guruhlarini tashkil etsin hamda ularning aniq reja asosida faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoit yaratib bersin;

d) mazkur yo'nalishda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan har bir hudud, vazirlik va idora rahbarlarining hisobotlarini Respublika komissiyasi yig'ilishlarida muntazam ravishda eshitib borsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'tkaziladigan asosiy bayram tadbirlarining dasturlarini tayyorlashga yuqori professional mahorat va tajribaga ega bo'lgan senaristlar va rejissyorlar, yozuvchi va shoirlar, bastakor va baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste'dodli yosh ijrochilar, maqom va baxshichilik san'ati vakillaridan iborat ijodiy guruhlar keng jalb etilsin.

5. Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilsin:

a) Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha sakkiz yil oldin boshlangan keng ko'lami islohotlarimiz tufayli jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy manzarasi butunlay o'zgarib borayotgani;

► Davomi 2-beta

Dolzarb mavzu

MAHALLADA OSOYISHTALIK BO'LSA, BUTUN JAMIYATDA XAVFSIZ HAYOT HUKM SURADI



► 2

Inson qadri uchun

90 MINGDAN ORTIQ KEYS — HAR BIRI BIR TAQDIR

IJTIMOY HIMOYANING YANGI TIZIMI QANDAY SAMARA BERMOQDA?

Ijtimoiy himoya jamiyatda barqarorlik va adolatni ta'minlashning muhim asosi. Shu bois, bu boradagi ishlar davlatimizning strategik vazifalaridan biriga aylandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ijtimoiy davlat tamoyili mustahkamlanib, davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko'paytirildi.

Ushbu prinsiplar asosida ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Soha tubdan isloh qilindi, ijtimoiy yordamning aniq, maqsadli va manzilligini ta'minlashga qaratilgan yangicha yondashuv va mexanizmlar joriy qilindi. Bu sohada keng ko'lami islohotlar boshlangan davrdan beri kambag'allik darajasi deyarli 3 barobar qisqardi.

Yurtimizda va islohotlar dinamikasiga mos ravishda aholini ijtimoiy himoya qilish, samarali ijtimoiy himoya siyosati yuritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda aholi uchun ajratilgan

ijtimoiy yordam hajmi 5 barobar oshirilib, 2 milliondan ortiq oila ijtimoiy himoya dasturlari bilan qamrab olindi. Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. 208 ta tuman (shahar)da "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

► Davomi 3-beta

Zomin seminari

PURVIQOR TOG'LAR BAG'RIDA



► 6

MAMLAKATIMIZDA BUNYODKORLIK VA AHOLI BANDLIGIGA QARATILGAN HAR BIR YANGI TASHABBUS HAMISHA QO'LLAB-QUVVATLANADI

Boshlanishi 1-betda

— Bu yer har bir insonning dardi bilan yashaydigan, ularni rozi qiladigan dargoh. Bu tizim orqali jamiyatimizda ijtimoiy adolat, inson qadri qaror topadi, — dedi Prezidentimiz.

Shu yerda davlat-xususiy sheriklik asosida "Imkoniyatlar olami" muassasasi tashkil etilgan. Davlatimiz rahbari undagi sharoitlarni ham ko'zdan kechirdi.

Muassasada 3 yoshgacha go'daklar uchun erta aralashuv, nogironligi bo'lgan bolalar uchun ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya, shuningdek, kunduzgi parvarish va qarab turish xizmatlari tashkil etilgan. Hozirda bu 80 ga yaqin insonning og'irini yengil qilmoqda. Ularga 12 nafar malakali xodim mehr-e'tibor ko'rsatmoqda.

So'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Chilonzor tumanidagi sanoat hududida amalga oshirilayotgan loyihalarni tanishtirdi.

Mazkur hudud Beshqo'rg'on va Tirsakobod mahallalarida hududida joylashgan bo'lib, 320 gektar maydonni egallagan. Kichik sanoat zonasi maqomidagi ushbu majmua Prezidentning 2023-yil 3-iyulidagi qarori asosida tashkil etilgan. Unga muvofiq, transport, muhandislik-kommunikatsiya va yo'l infratuzilmasining yaxshilangan sanoat va tadbirkorlik rivojiga zamin yaratildi.

Bu yerda xalqaro standartlarga muvofiq energiyatejamkor, ekologik xavfsiz ishlab chiqarish quvvatlari barpo etildi. Hozirgi kunda bunday korxonalar soni 531 ta yetdi. Ularda yaratilgan ish o'rinlari soni esa 20 mingtaga yaqinlashdi. Yillik ishlab chiqarish salohiyati ham kam emas — 6 trillion 800 million so'm. Joriy yilda hududdagi 50 ta korxonada 180 million dollarlik mahsulot eksport qilinadi. Ilgari Chilonzorda hech qachon bunday ko'rsatkichlar bo'lmagan.

Davlatimiz rahbari ushbu hududdagi "Tarleplast" korxonasida bo'lib, ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Ushbu loyihaning umumiy qiymati 25 million dollar. Korxonaga Yevropaning yetakchi kompaniyalaridan 12 turdagi zamonaviy uskunalarni keltirib o'rnatilgan. Natijada bu yerda yiliga 90 ming tonna temir quruv va po'lat profilarni ishlab chiqarish imkoni yaratildi. Bu mahsulotlarni pulga chaqqanda 900 milliard so'm degani. Korxonada 120 ga yaqin kishi doimiy ish bilan ta'minlandi.

Ahamiyatli, yuqori bosimga va tashqi ta'sirlarga chidamli quvvatlar turi, hajmi

va narxi bo'yicha raqobatbardosh. Buning tasdig'ini o'tgan yili 4 million dollarlik mahsulot Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston kabi mamlakatlarga eksport qilinganida ham ko'rish mumkin. Endi sotuv geografiasini yanada kengaytirish mo'ljallangan.

Davlatimiz rahbari mazkur industrial hududda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'rgazmasini ko'zdan kechirdi. Yaqin istiqboldagi sanoat loyihalari taqdimot qilindi.

Jumladan, ko'p qavatli ishlab chiqarish binosi va monomarkaz tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Buning natijasida hududda yana 100 ta yangi loyiha amalga oshiriladi, qo'shimcha 3 mingta ish o'rni yaratiladi. Loyihalar qurilish, farmatsevtika, elektrotexnika, poligrafia, avtomobilsozlik, tikuv-trikotaj va qandolatchilik kabi yo'nalishlarni qamrab olgan.

Prezidentimiz tadbirkorlar bilan suhbatlashdi. Qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni tayyorlash, ish o'rinlarini ko'paytirish hamda xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tumandagi industrial hududda joylashgan "Eman materials" korxonasida ham bo'ldi.

Bugun dunyodagi iqtisodiy tebranishlar sharoitida, avvalo, ichki imkoniyatlardan foydalanish, eng ko'p ish o'rni yaratadigan sohalarini himoyalash zarurati tug'ilmoqda. Mamlakatimizda to'qimachilik, qurilish materiallari, mebelsozlik ana shunday sohalar sirasiga kiradi. Ularda bir million nafarga yaqin aholi ishlaymoqda.

Jumladan, mebelsozlikka ixtisoslashgan 7 ming 500 ta korxonaga faoliyat yuritmoqda. O'tgan yilning o'zida 920 ta yangi korxonaga ochildi. Sohadada 6 trillion 700 milliard so'mlik mahsulot tayyorlanib, 20 million dollarlik mebel eksport qilindi.

Xorazm viloyatining Xonqa tumani tajribasi asosida boshqa joylarda ham mebelchilik markazlari tashkil etilmoqda. Sohadagi tadbirkorlarning chet eldan xomashyo, furnitura va aksessuar olib kelishi, eksport bozorlariga chiqishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Chilonzor tumanidagi industrial hududda mebelsozlikka ixtisoslashgan o'ngacha yaqin shirkat bor. "Eman materials" korxonasi tashabbuskorning 10 million dollar mablag'i evaziga tashkil topgan. Bu yerda yiliga 10 ming tonna furnitura va mebelsozlik buyumlari ishlab chiqarilmoqda. Ular

kooperatsiya asosida yurtimizdagi minglab korxonalariga yetkazib berilyapti. Endi eksportga chiqarish ham rejalashtirilgan.

Korxonada 200 kishi ish bilan ta'minlangan. Ahamiyatli, shu yerning o'zida mebelsozlik o'quv markazi ham tashkil etilgan. Buning uchun Italiya va Turkiya kabi davlatlardan mutaxassislar jalb qilingan.

Shuningdek, korxonada tomonidan buyurtma asosida mebel ishlab chiqarish, loyihalashtirish, kesish, uskunalarini ta'mirlash kabi qo'shimcha xizmatlar ham ko'rsatiladi.

Majmua ko'rgazma zali ham tashkil etilgan bo'lib, bu yerda poytaxtdagi nomdor — brend mahsulotlar bir joyga jamlangan. Bu tizim sotuvchi, xizmat ko'rsatuvchi va oluvchiga qulaylik yaratmoqda.

Davlatimiz rahbari korxonadagi ish jarayonini ko'zdan kechirib, mutaxassislar bilan suhbatlashdi. Mebelsozlik tarmog'ida mahalliyatlashish va qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha hali foydalanilmagan juda ko'p imkoniyat borligi ko'rsatib o'tildi.

Shu yerda Chilonzor tumanida tashkil etilgan "Islohotlar shtabi" faoliyati haqida axborot berildi. Aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan yangi takliflar va kutilayotgan natijalar ko'rib chiqildi.

Qayd etilishicha, tumanda joriy yil boshida kambag'allik darajasi 7 foizdan yuqoriroq bo'lgan bo'lsa, birinchi yarim yillik yakunlari bo'yicha bu raqam 2,2 foizga tushgan. Manzilli rejaga ko'ra, tumanni yil yakuniga qadar kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish maqsad qilingan. Buning uchun oilalar imkoniyatini yuzaga chiqarish, mikroloyihamalga amalga oshirish, yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilish, norasmiy ish o'rinlarini qonuniylashtirish choralarini ko'riladi.

Prezident aholi bandligiga qaratilgan tashabbuslarni hamisha qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Investitsiyalarni jalb etib, imkoniyatlarni loyihaga aylantirish, kichik korxonalar faoliyatini kengaytirish zarurligini ta'kidladi. Iqtisodiyot va investitsiya sohalarini mas'ullariga tadbirkorlar bilan doimiy uchrashib, muammolarini hal etish, takliflarini yuzaga chiqarish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O'ZA muxbirlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O'TTIZ TO'RT YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'IRISIDA

Boshlanishi 1-betda

b) qisqa muddatda mamlakatimiz iqtisodiyoti shiddat bilan o'sib, yalpi ichki mahsulotimiz hajmi tarixda birinchi marta 110 milliard AQSH dollaridan oshgani, "yashil" va innovatsion iqtisodiyotga o'tish, muqobil energiya manbalarini yaratish bo'yicha ulkan dastur va loyihalar amalga oshirilayotgani;

d) yangilangan Konstitutsiyamizda belgilanganidek, O'zbekiston tobora inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ulug'lanadigan ijtimoiy davlatga aylanib borayotgani, bandlikni ta'minlash, zamonaviy ish o'rinlarini ko'paytirish, kambag'allikni qisqartirish, yordamga muhtoj toifalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari katta ijobiy natijalar berayotgani;

e) ta'lim sohasidagi islohotlar ilgari tariximizda misli ko'rilgan o'zgarishlarga olib kelayotgani, maktabgacha ta'lim tizimida qamrov 2017-yildagi 27 foizdan hozirgi paytda 77 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga yetgani, yurtimizda ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar va Prezident maktablari kabi yangi modeldagi maktablar tizimi paydo bo'lgani;

f) sog'liqni saqlash, ilm-fan, IT, madaniyat, adabiyot va san'at sohalarida rivojiga ham katta e'tibor berilayotgani, Parij Olimpiadasi va Paralimpiadasida sportchilarimiz ilk bor kuchli o'n beshtalikdan joy olgani, futbol bo'yicha 17 yoshgacha o'smirlar jamoamiz, shuningdek, milliy terma jamoamiz O'zbekiston tarixida birinchi marta jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritgani;

g) "Yoshlar — Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" degan shior ostida navqiron avlodimizning zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, ona tili bilan birga xorijiy tillarni, IT texnologiyalarini egallashlari, tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari, iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarishlari uchun har bir tomonlama qulay shart-sharoit yaratib berilayotgani, bunga javoban o'g'il-

qizlarimiz turli sohalarida dastlabki quvonchli yutuqlarga erishayotganlari;

h) keyingi yillarda shahar va qishloqlarimiz jadal sur'atlar bilan obod bo'lib borayotgani, "Yangi O'zbekiston" uy-joy mavzularini barpo etish, "Obod qishloq", "Obod mahalla" dasturlari doirasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgani, smart va innovatsion shaharsozlik asosida yangi shaharlar barpo etilib, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari rivojlanayotgani;

i) ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatimizdagi tinchlik, o'zaro do'stlik va hamjihatlik muhiti — bizning bebaho boyligimiz ekanini, uni asrab-avaylash va mustahkamlash barchamizning muqaddas burchimiz bo'lib qolishi zarurligi;

j) "Armiya va xalq — bir tan-u bir jondir!" degan shior asosida Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirish, mard va jasur askar va ofitserlarimizning jismoniy, ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar amalga oshirilayotgani;

k) O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo'shniqlik, hamkorlik va integratsiya jarayonlarini kuchaytirishdagi o'rni va nufuzi ortib, yangi bosqichga ko'tarilayotgani;

l) Yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida ochiq, demokratik va dunyoviy davlat sifatidagi obro'-e'tibori va nufuzi tobora yuksalib borayotgani.

6. Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov):

a) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda bir hafta muddatda Toshkent shahrida Mustaqillik bayramiga bag'ishlab o'tkaziladigan asosiy bayram tadbirining dasturi va senariysini Konsepsiya asosida ishlab chiqish hamda uni yuksak o'yaviy-badiiy saviyada tayyorlash choralarini ko'rsin;

b) Badiiy akademiya, Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi bilan

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Toshkent shahri,
2025-yil 10-iyul

SH. MIRZIYOYEV

MAHALLADA OSOYISHTALIK BO'LSA, BUTUN JAMIYATDA XAVFSIZ HAYOT HUKM SURADI

Globalashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan bugungi zamonaviy dunyoda tinchlik, xavfsizlik masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Bu borada, birinchi galda, mahallalarda xavfsiz muhit yaratish, aholi tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida adolatli, xavfsiz va ijtimoiy barqaror jamiyatni shakllantirish bevosita mahallalardagi ishlar holatiga bog'liq. Zero, aynan mahallada jamoatchilik kayfiyati shakllanadi, yosh avlod tafakkuri rivojlanadi, milliy va oilaviy qadriyatlar mustahkamlanadi. Shuning uchun ham mahallani qonuniylik, huquq-tartibot va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining dastlabki bo'g'ini deyish mumkin.

Keyingi yillarda yurtimizda mahalla institutining maqomi oshirilib, vakolati kengaytirildi. Bu esa mahallaning tadbirkorlik

va bandlik markazi, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar hal etiladigan yaxlit maskaniga aylanishiga zamin yaratmoqda. Mahallada jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikni

kamaytirishga qaratilgan islohotlar samarasi esa haqiqatan quvonarli.

Bugun ayni masalalar davlat siyosatining markazida. Prezidentimizning qat'iy ishonchi ham shundan iboratki, mahallada osoyishtalilik bo'lsa, butun mamlakatda xavfsiz hayot hukm suradi.

Har bir mahallada tartib-intizom, qonun ustuvorligi ta'minlansa, fuqarolar o'zini emir-erkin his etsa, shunda davlatga ishonchi yanada mustahkamlanadi. Barqaror taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

“ Mahallalarda aholining huquqiy ongini oshirishga qaratilgan dasturlar faol amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarni huquq-targ'ibotni ta'minlash jarayonlariga jalb etishga alohida urg'u beriladi. Ularning ishtiroki mojarolarni o'z vaqtida aniqlash va oldini olishga, o'zaro hurmat, mas'uliyat hamda hamjihatlik muhitini shakllantirishga xizmat qilyapti.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan eng muhim islohotlardan biri, bu — jamoat xavfsizligini ta'minlashda mahalla darajasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan preventiv modelning joriy etilishi bo'ldi. Shu maqsadda profilaktika inspektorlari faoliyat yuritadigan tizim yaratildi. Bu tizimda ular ishini faqatgina rasmiy tarzda emas, balki kompleks yondashuv asosida olib boradi. Ya'ni mahalla fuqarolar yig'ini raislari, xotin-qizlar, yoshlar tuzilmalari, bandlik, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarini vakillari bilan yaqindan hamkorlikda ishlaydi. Bunda eng muhim vazifalardan biri faqatgina jinoyatchilikning oldini olish emas, ijtimoiy tanglikka olib keluvchi omillarni ham aniqlash hisoblanadi. Bular oilaviy mojarolar, ishsizlik, o'smirlarga e'tiborsizlik

yoki yoshlar bandligi ta'minlamagani kabi muammolar bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan barcha ijtimoiy xizmatlar yagona tizimga integratsiya qilinmoqda. Bu shuni anglatadiki, muammoga duch kelgan fuqaro o'z mahallasidanoq zarur yordamini olishi mumkin. Bu huquqiy, ijtimoiy, psixologik, moddiy yoki mehnatga oid ko'makdan iborat.

Bugungi kunda mahallalar yoshlarni ishli qilish va ularni kasbga tayyorlash, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha amaliy maydonga aylangan. Xavfsizlikni qat'iy choralar bilan emas, balki ijtimoiy hamkorlik va ko'mak orqali ta'minlash amalda samarali natijalar berayotir.

Yana birmuhim jihati. Ayniyo'nalishda aholi bilan ishlash jarayonini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar huquqbuzarliklar darajasi, ijtimoiy muammolar, ishsizlik va nosog'lom oilalar holatini tahlil qilish imkonini beradi.

Fuqarolarning murojaatlari raqamli shaklda qayd etilib, tahliliy hisobotlar shakllantiriladi. Bu esa manzilli va o'z vaqtida zarur qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Mazkur tizim nafaqat mahalliy organlarning mas'uliyatini kuchaytiradi, balki rasmiyatchilik va byurokratiyani bartaraf etadi. Bunda har bir harakat qayd etiladi, har bir natija monitoring qilib boriladi.

Mahalla darajasida huquq-tartibotni ta'minlash va raqamlashtirish bo'yicha katta tajriba Xorazm viloyatida ham yaxshi shakllangan. Xususan, "Xavfsiz mahalla" tamoyili doirasida mahallalar, savdo do'konlari, ko'ngilochar maskanlar, turar joylarda gaz va avtomobil yonilg'i quyish shoxobchalari, xizmat ko'rsatish sohasining boshqa obyektlarida 153 ta nazorat kamerasi o'rnatildi. Kameralarning 122 tasi videokuzatuv markazi bilan integratsiyalashgan. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar ish samaradorligini oshirishda kutilgan natijalarni bermog'da.

yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha tashkiliy-profilaktik asoslarni zamon talablariga moslashtirish, jinoyatchilikka olib keluvchi omillarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning erta oldini olish tizimini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimiz rahbari 8-iyul kuni mahallada jinoyatchilikni jilovlash va qonun ustuvorligini ta'minlash chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.

— Taqdimotda mamlakatimizda o'tgan olti oyda kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, jinoyat va huquqbuzarlik holatlarining barvaqt oldini olish va mahallalarda xavfsiz muhit yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobot berildi, — deydi ichki ishlar vaziri Aziz Toshpo'latov. — Unda Prezidentimizning 2025-yil 3-yanvardagi qarori asosida mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha qilingan ishlar tanqidiy tahlil etilib, aniq vazifalar belgilandi. Xususan, respublikadagi kriminogen vaziyat kundalik tahlil qilinib, manzilli nazorat tadbirlari o'tkazilyapti. Har bir jinoyatning sabablari o'rganilib, qayta takrorlanmasligi choralarini ko'rilmoqda. Eng muhimi, ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning o'tgan olti oyida respublikamizning 55 foiz mahallalarida birorta ham jinoyat sodir bo'lmadi. Lekin bu xotirjamlikka berilishga asos bo'lmaydi. Yil yakuniga ko'ra, 827 ta qizil toifadagi mahallani jinoyatdan xoli hududga aylantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Bir so'z bilan aytganda, mahalla nafaqat o'zini o'zi boshqarish instituti, balki huquq-tartibot, profilaktika va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan strategik birlikdir. Inson manfaatlariga qaratilgan e'tibor va g'amxo'rlik, avvalo, mahallalarda jamlanganog'i zarur. Mahalla huquq-tartibot tizimida shakllanayotgan asosiy tamoyillar bu — ko'mak, xavfsizlik, adolat va ishonchdir.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Inson qadri uchun

90 MINGDAN ORTIQ KEYS – HAR BIRI BIR TAQDIR

IJTIMOYIY HIMOYANING YANGI TIZIMI QANDAY SAMARA BERMOQDA?

Boshlanishi 1-betda

Joylarda ijtimoiy xodim va assistenti lavozimi joriy etilib, har bir mahalladagi oila soni, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari inobatga olgan holda ijtimoiy xodimlar "hudud — uchastka — mahalla" tamoyili asosida birlashtirildi. Bu chora-tadbirlar aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish, ularni joylardagi sharoit va ehtiyojdan kelib chiqib maqsadli tashkil etish bilan birga, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalari uchun yangi turdagi xizmatlarni joriy etish imkonini bermoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida bu jahbdagi ishlar yanada kengaymoqda. Xususan, unda aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish, kambag'allikni qisqartirish, professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish, inson huquqlarini muhofazalash, jamiyatda zo'ravonlikning

oldini olish, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay muhit va inklyuziv jamiyat barpo etish yo'lida keng qamrovli ishlar qilinmoqda. Ijtimoiy himoya milliy agentligi mas'ullari va "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari mutaxassislari bilan suhbatimiz ushbu sohada ishlohtlar, erishilayotgan natijalar, o'zgarishlarning xalqimiz hayotidagi ifodasi xususida bo'ldi.



xizmatlar markazlari xodimlari va sudlar o'rtasida uchrashuvlar tashkil etilib, sudga murojaat qilish jarayonida uchrayotgan muammolar, huquqiy mexanizmlar samaradorligi hamda murojaatlar tezkorligi masalalari muhokama qilindi. Natijada "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va sud organlari o'rtasida hamkorlikning aniq tartibi belgilab olindi hamda o'zaro axborot almashinuvi va murojaatlarni ko'rib chiqishda muvofiqlashgan yaxlit tizim yo'lga qo'yildi.

Mazkur muvofiqlash orqali ikki tizim — ijtimoiy himoya va sud organlari o'rtasidagi hamkorlik yanada mustahkamlandi. Fuqarolar manfaatlarini samarali himoyalash, murojaatni ko'rib chiqishdagi muddat va hujjatbozlikni kamaytirish, huquqiy masalalarni hal qilishdagi tizimli yondashuvlar kabi masalalar bo'yicha aniq kelishuv va amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan joriy yilning 5 oyida sudlarga 2 ming 70 ta da'vo arizasi kiritilgan. Mazkur ko'rsatkich markazlar tomonidan aholining huquqiy himoyasini ta'minlash yo'lida yuritayotgan maqsadli va tizimli faoliyatini yaqqol namoyon etadi. Arizalar tarkibini tahlil qiladigan bo'lsa, 1885 tasi da'vo ariza, ariza va shikoyat maxsus axborot maydoni — "Adolat" elektron platformasi orqali yuborilgan, bu raqam huquqiy jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali murojaatlarni ko'rib chiqishdagi samaradorlikni sezilarli darajada oshirganini ko'rsatadi.

Yuborilgan da'volaridan 1381 tasi sudlar tomonidan qanoatlantirilgan, bu esa har ikkinchi murojaat bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinishini anglatadi. Qolgan arizalar esa hozirgi vaqtda sud muhokamasi jarayonida.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari huquqiy masalalar bo'yicha ekspert maslahatchilar faoliyati, sud organlari bilan yo'lga qo'yilgan samarali hamkorlik, elektron platformalar orqali murojaat qilish imkoniyatlari va tizimli yondashuv — barchasi og'ir ijtimoiy vaziyatga tushgan shaxslar uchun huquqiy himoyaning amaliy va real mexanizmi shakllanayotganini ko'rsatadi.

Bu esa ijtimoiy adolatni qaror toptirish, inson qadri va daxlsiz huquqlarini ta'minlash yo'lidagi keng qamrovli ishlohtlarning chuqur huquqiy asoslarga tayanayotganini, davlat va jamiyat o'rtasidagi mas'uliyatli hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilayotganini yaqqol ifoda etadi.

HUQUQIY YORDAM — IJTIMOYIY XIZMATLARNING USTUVOR YO'NALISHI



Sirojiddin ABDULLAYEV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori o'rinbosari:
— Hayotning har bir kuni sinov. Bugun shod-xurram yurgan odamning boshiga bexosdan biror tashvish tushishi hech gap emas. Har qanday inson sinov oldida bir muddat o'zini yo'qotib qo'yishi mumkin. Bunday vaziyatda unga ham ruhiy,

ham ma'naviy ko'mak zarur. Ayrim chigallarni yechish uchun esa huquqiy yordamga ehtiyoj tug'iladi. Shunday paytda mamlakatimizda yaratilgan zamonaviy ijtimoiy himoya tizimining o'rni yaqqol namoyon bo'ladi.

Bugun yordamga muhtojlarni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari asosiy tayanch nuqtaga aylandi. 208 ta tuman (shahar)dagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida huquqiy masalalar bo'yicha ekspert maslahatchilar faoliyat yuritmoqda. Ular faqat maslahat bilan cheklanmasdan, murakkab hayotiy vaziyatga tushgan oilalarni sudlar orqali himoya qilishda faol ishtirok etyapti.

Huquqiy masalalar bo'yicha ekspert maslahatchilar faoliyatini ijtimoiy xodimlar bilan uzviy hamkorlikda amalga oshiradi. Ijtimoiy xodim fuqaro bilan ishlash jarayonida aniqlagan huquqiy muammolarni belgilangan tartibda mutaxassisga yo'llaydi, u masalani o'rganib, fuqaroga tegishli huquqiy yordam ko'rsatadi.

Fuqarolarning huquqiy masaladagi muammolari "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi operatorlari

“ Bugun yordamga muhtojlarni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari asosiy tayanch nuqtaga aylandi. 208 ta tuman (shahar)dagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida huquqiy masalalar bo'yicha ekspert maslahatchilar faoliyat yuritmoqda. Ular faqat maslahat bilan cheklanmasdan, murakkab hayotiy vaziyatga tushgan oilalarni sudlar orqali himoya qilishda faol ishtirok etyapti.

tomonidan ham qabul qilinadi va maslahatchiga yuboriladi. Bunday yondashuv fuqaro va sud o'rtasidagi huquqiy aloqani yengillashtirish, ortiqcha hujjatbozlik va vaqt sarfini kamaytirish, shuningdek, qonuniy himoyani samarali ta'minlashga xizmat qilyapti.

Qonunchiligimizga muvofiq, huquqiy masalalar bo'yicha ekspert maslahatchilar sudlarga da'volar, ariza hamda shikoyatlarini davlat bojisiz kiritish huquqiga ega. Qolaversa, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga sudga murojaat etishda davlat boji to'lash majburiyati yuklanmaydi, bu esa huquqiy yordamning ochiqchiligi va manzilliligini ta'minlaydi.

Huquqiy muammolarning aksariyat qismi mahalladagi ijtimoiy xodimlar tomonidan keys-menejment asosida fuqarolar bilan olib borilayotgan ijtimoiy ish jarayonida aniqlanadi. Ijtimoiy xodim huquqiy muammoni to'g'ri baholab, uni maxsus

elektron tizim orqali huquqiy maslahatchiga yuborish imkoniga ega. Bu jarayon to'liq avtomatlashtirilgan, "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi modullaridan biri orqali amalga oshiriladi. Yaratilgan tizim yordamida arizalarning holati, ko'rib chiqish jarayoni va natijalarini kuzatib borish imkonini mavjud.

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida faoliyat yurituvchi huquqiy masalalar bo'yicha ekspert maslahatchisi sud organlarining "Adolat" elektron axborot tizimiga to'g'ridan to'g'ri kirish huquqiga ega. Fuqarolik va ma'muriy sudlarga da'vo arizalari, shikoyat va boshqa murojaatlarni qog'ozsiz, elektron tarzda yuborish mumkin. Boshqacha aytganda, fuqaroning ishi sudga yuborilishi uchun endi qog'oz hujjatlarni to'plab yurish shart emas — mutaxassis barcha zarur ma'lumotlarni elektron tizim orqali sudga yuborib, jarayonni masofadan boshqaradi. Raqamlashtirilgan tizimlarning umumiy maqsadi fuqarolar uchun huquqiy himoyaga olib boruvchi yo'lni ancha oson va tezkor qilishdir.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi va Oliy sud hamkorligida joylarda "Inson" ijtimoiy

KEYS-MENEJMENT AMALIYOTI NIMANI O'ZGARTIRADI?

Farid NAZAROV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi boshqarma boshlig'i:



— Mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimi inson qadri ustuvor qo'ngan holda yangilanmoqda. Bu jarayonda og'ir ijtimoiy vaziyatga tushgan shaxs (oilalar bilan tizimli va manzilli ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Keys-menejment usuli ana shu muammolarni hal qilib borishda asosiy vositalardan biriga aylandi. Keys shaxs (oila)ning muayyan ijtimoiy muammosini hal etishga qaratilgan xizmatlarni tashkil etish jarayoni bo'lib, uning darajasi ijtimoiy xodim tomonidan kompleks baholanadi.

Agar oila yoki fuqaro yuzma-yuz kelayotgan ijtimoiy muammo nisbatan yengil bo'lsa, ularga zarur yo'nalishdagi yordam ko'rsatilsa, bu muammoni o'zlarida mustaqil yengib o'tish imkoniga ega bo'ladi. Bunday holda ijtimoiy ish (keys) to'g'ridan to'g'ri mahallada faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xodim tomonidan yuritiladi.

Biroq holat og'ir (qiyin) hayotiy vaziyat sifatida baholansa, masalan, kam ta'minlangan (kambag'al) oilada nogironligi bor ikki va undan ortiq farzand bo'lsa yoki oilada umuman mehnatga layoqli shaxs bo'lmasa, bunday holat "og'ir keys" deb baholanadi va "e-case" elektron moduli orqali "Inson" ijtimoiy xizmatlar markaziga yuboriladi.

E-case elektron moduli "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimining tarkibiy qismi, ijtimoiy xizmat va yordamlarning aniq maqsadli, tizimli va samarali ko'rsatilishini ta'minlaydigan raqamlashtirilgan boshqaruv vositasidir. Bugungi

kunda e-case elektron moduliga faqat texnik vosita emas, balki inson huquqlari, kasbiy mas'uliyat va xizmat sifatini ta'minlashning asosiy mexanizmi sifatida qaralmoqda. Mazkur tizim orqali har bir ijtimoiy xodim ishini rejalil, aniq va hisobdorlikka asoslangan holda bajaradi. Moduldagi ma'lumotlar xizmat oluvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda tezkor va moslashuvchan yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Keysni yopish faqat tizimda belgilangan xizmatlar bajarilgandan so'ng emas, balki shaxsning og'ir hayotiy vaziyatdan chiqishi amalda ta'minlanganidan keyingina amalga oshiriladi. Ya'ni ijtimoiy xizmatlar natijasida shaxs yoki oilada hayot sifatini yaxshilash, ijtimoiylashtirish kuzatilishi bilan bevosita bog'liq. Jumladan, daromadsiz shaxs band bo'lishi, nogironligi bo'lgan shaxs eng kam darajada bo'lsa-da harakatga kela boshlashi, bola xavfsiz va barqaror muhitda o'sishida kuzatiladi. Faqat shu kabi amaliy o'zgarishlar qayd etilganidan so'nggina keys rasmiy ravishda yopiladi. Bu yondashuv faqat hujjat emas, inson taqdiri ustidan mas'uliyat ekanini anglatadi.

Joriy yilda 90 mingdan ziyod keys ochildigani shuncha raqam emas, balki 90 mingta inson taqdiri yoki og'riq, umid va kutilmagan muammolar bilan yuzma-yuz kelgan hayot haqidir. Mazkur



keysning har biri ortida kambag'allikda yashayotgan oila, imkoniyati cheklangan bola, yolg'iz keksalar yoki zo'ravonlikdan jabr ko'rgan ayollar turibdi. Aynan shu o'rinda ijtimoiy xodimlar va bosh ijtimoiy xodimlar sahnaga chiqadi. Ular muammoni ko'radi, tinglaydi, tahlil qiladi va har bir shaxs uchun individual yechim taklif etadi.

Bu nafaqat hujjat rasmiylashtirish yoki xizmat ko'rsatish emas, balki inson hayotini yaxshilashga qaratilgan yuksak missiya. Faqat kasbiy bilim, teran empatiya va qat'iyatli yondashuv bilan ijtimoiy xodim va bosh ijtimoiy xodimlar bu murakkab keyslarni ijobiy o'zgarishga aylantira oladi. Shuning uchun har bir ochildigani sinov emas, balki imkoniyat, ya'ni shaxs uchun o'z hayotini yaxshilash, ijtimoiy xodim uchun kasbiy salohiyatini namoyon etish imkoniyati.

Keys-menejment yondashuv faqat raqamlar bilan emas, balki insonparvarlik va mas'uliyat tuyg'usi bilan yuritilgandagina haqiqiy natija berishi mumkin.

“ Bugungi kunda mahallalarda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xodimlar har kuni ana shunday yuzlab insonlarning og'irini yengil, mushkulini oson etib, oilada, jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaxshilash, o'zaro mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlashga hissa qo'shmoqda.

DAVLAT VA XALQ O'RTASIDAGI ISHONCH KO'PRIGI

Ilyosbek MAMADALIYEV,
Mirzo Ulug'bek tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi direktori:

— So'nggi yillarda yurtimizda ijtimoiy himoya sohasidagi ishlohtlar insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etilmoqda. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda ijtimoiy xodimning roli beqiyosdir.

Ijtimoiy xodim davlat va jamiyat o'rtasida ishonch ko'prigi vazifasini bajaradigan mutaxassisdir. Bu soha vakillari aholining murakkab hayotiy sharoitlarini bartaraf etishda yordam ko'rsatadi, ijtimoiy xizmatlar bilan ta'minlash jarayonini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi.

Shu bois, rivojlangan davlatlarda ijtimoiy himoya sohasini rivojlantirishda bu tizim samarali taqib etilmoqda. Masalan, Germaniya, Finlyandiya va Kanada kabi davlatlarda ijtimoiy ish instituti aholi bilan ishlashning asosiy mexanizmlaridan biriga aylangan. O'zbekistonda ham ushbu amaliyot bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ijtimoiy xodimlar faqat texnik xizmat ko'rsatuvchi emas, balki professional ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatish, insonlarga hamdardlik va mas'uliyatni ifoda etuvchi shaxslar sifatida ko'rilmog'da.

Mamlakatimizning barcha hududlarida bo'lgani kabi tumanimizdagi 70 ta mahallaning har birida ijtimoiy xodimlar aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Ijtimoiy xodim mahallalarda og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan 12 toifadagi insonlar bilan doimiy ishlaydi. Jumladan, nogironligi bor insonlar, kam ta'minlangan oilalar, tazyiq va zo'ravonlikka uchraganlar, otana qaragom'idan mahrum bo'lgan hamda to'liq bo'lmagan oilalardagi bolalar, muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar, texnogen, tabiiy va ekologik tusedagi favqulodda vaziyatlardan jabrlanganlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa qatlam huquq va manfaatlarini himoya qilindi.

2025-yil davomida ijtimoiy xodimlarning ana shu yo'nalishdagi o'rganishlari natijasida e-case elektron platformasida 483 ta keys

ochildi va shu asosda 1645 ta xizmat va yordam belgilangan, shundan 685 ta xizmat va yordam ko'rsatildi.

Bu raqamlar ortida faqat xizmat va yordam olgan insonlarga emas, ularning oilasi, yaqinlarining ham taqdiri mujassam. Zero, bir oilada ijtimoiy himoyaga muhtoj inson bo'lsa, faqat shu xonadondagilargina emas, yaqin qarindoshlari, hatto qo'shnilar ham uning dardi va tashvishiga befarq bo'lmaydi. Shu bois, uning hayotidagi o'zgarish ko'pchilikka quvonch olib keladi.

Bugungi kunda mahallalarda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xodimlar har kuni ana shunday yuzlab insonlarning og'irini yengil, mushkulini oson etib, oilada, jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaxshilash, o'zaro mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlashga hissa qo'shmoqda.

Ijtimoiy xodimlar shu taxlit mahallalarda og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan insonlar bilan doimiy ishlaydi. Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash alohida yo'nalishdir. Keks va nogironligi bo'lgan 89 yurtdoshimiz esa navbat asosida sanatoriylarga bepul yo'llanmalar bilan ta'minlanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish ham doimiy e'tiborimizdadir.

Bundan tashqari, oilada tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, bunday vaziyatga tushib qolganlarga har tomonlama ko'mak berish bo'yicha o'ziga xos tizim yaratildi. Shu bilan birga, davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat va yordamlar to'g'risida, shuningdek, mazkur xizmatlarni olishga bo'lgan huquqlari bo'yicha aholiga tushuntirish berilyapti.

Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy ijtimoiy himoya sohasi avvalgi tizimdan tubdan farq qiladi. Mazkur tizimning muhim tayananchi bo'lgan ijtimoiy xodim faoliyati ham butkul yangicha, zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilmoqda. Bu xayrli ishlarining samarasi xalqimiz, jumladan, o'zgarlar ko'magi, mehr-e'tiborga muhtoj insonlar hayotiga yangicha ma'no-mazmun olib kirmoqda. Joriy yilga mo'ljallangan davlat dasturida bu jabhada belgilangan chora-tadbirlar o'z vaqtida bajarilayotgani inson qadri ulug'lashdek xayrli ishlar rivojiga xizmat qiladi.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Bahor XIDIROVA yozib oldi.



OCHIQ VA

SHAFFOF BOZOR

Milliy iqtisodiyot qancha barqaror rivojlansa, mamlakat taraqqiyoti, aholi turmush darajasi shuncha oshib boraveradi. Ammo ana shu iqtisodiyotni rivojlantirish, global iqtisodiy tadbirlar sharoitida oyoqda mustahkam tura olish, narx-navo doimiy o'zgarib, keskin oshib borayotgan dunyo bozorida o'rin egallash hech bir davlat uchun oson kechmayapti. O'zbekiston ana shu uzilmas zanjirning muhim qismiga aylinish uchun doimiy ravishda kompleks chora-tadbirlar ko'rayotgani boisi shunda.



Humoyunmirzo BOZOROV,
Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi
bo'lim boshlig'i

Bunda nafaqat o'sish ko'rsatkichlariga erishish, balki dunyo iqtisodiy maydonidagi "ob-havo"ga moslashish, murakkab masalalarga samarali yechimlar bilan javob qaytarish dolzarb bo'lmoqda. Natijalar ham shunga yarasha — faqat raqamlarda emas, balki aholi farovonligi, turmush sharoiti, hududlar va sanoat tarmoqlari rivojida yaqqol namoyon bo'lyapti.

Joriy yilning birinchi yarim yilligi uchun dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, yurtimiz yalpi ichki mahsuloti 6,8 foiz o'sib, barqaror ko'rsatkichni qayd etayotgani buning misoli. Barcha soha va tarmoqlar qatori eksportida ham yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishildi. Dastlabki yarim yillikda eksport hajmi 16 milliard 900 million dollarga yetib, o'tgan yilning mos davridagidan 33 foiz o'sdi. Xususan, yil boshidan buyon 1557 ta yangi korxonalar tashqi bozorga jalb etilib, ular tomonidan 650 million dollarlik eksport amalga oshirildi.

O'sish barcha soha va tarmoqlarda qayd etilganini ko'rish mumkin. Oziq-ovqat, qurilish materiallari, elektrotexnika va boshqa qator sohalarda ko'rsatkichlar, ayniqsa, yuqori. Masalan, tovar va xizmatlar eksporti 23 foiz



An'anaviy bozorlardan tashqari G'arb davlatlariga eksport ortib boryapti. Xususan, joriy yilning dastlabki yarim yilligida Polshaga 47 million dollarlik eksport amalga oshirilib, ko'rsatkich o'tgan yilning mos davridagidan 117 foiz o'sdi. Germaniyaga 37 million dollarlik, Gruzuyaga 30 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Bu raqamlar ham avvalgilardan ancha yuqori.

oshgan. Meva-sabzavot mahsulotlari o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 248 million dollar, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti 157 million dollar o'sishi ta'minlandi. Shu bilan birga, parallel ravishda xizmatlar eksporti ham o'sishi kuzatilyapti. Xususan, turizm xizmatlari o'sishi o'tgan yildagiga nisbatan 700 million dollar oshdi. Bu yurtimizga qiziqish bildirayotgan xorijliklar, tashrif buyuruvchi sayohatkorlari soni ortayotganidan dalolat. Transport xizmatlari ham sezilarli oshib, 150 foiz o'sish kuzatilgan.

To'qimachilik, elektrotexnika, farmatsevtika iqtisodiy o'sishga juda katta turki berayotgan tarmoqlardan. Maishiy kimyo sohalari ham rivojlanib, boshqa sanoat tarmoqlari bilan raqobatlasha oladigan darajaga yaqinlashib kelyapti. Ayni shu tarmoqlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar eksporti ulushi ancha yuqori bo'lib, asosiy drayverlardan hisoblanadi.

Tashqi savdo, ayniqsa, eksportni rivojlantirish mamlakat uchun bir qator yangi imkoniyatlar ochib beradi. Avvalo, milliy iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Eksportning geografik kengayishi ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlarga chiqishni ta'minlaydi. Bu borada asosiy e'tibor qaratilayotgan "har bir hudud — drayver" tamoyili asosidagi ishlar ijobiy natijasini bermoqda.

Eksport bundan keyin ham iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi bo'lib qoladi. Mamlakatimizda bu boradagi o'sish hajmini 2 barobar oshirib, 2030-yilga borib, 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtagacha ko'paytirish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini 3,3 barobar oshirish maqsad qilingan. Bu maqsadlar bevosita yuqori qiymat va yangi ish o'rinlari yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, aholi farovonligini davlatdoshlikka xizmat qiladi.

Islohot odimlari

YO'L QURGAN ELDA AZIZ

YOXUD QASHQADARYONING RAVON YO'LLARI ODAMLARNI HAYOTDAN ROZI BO'LIB YASHASHGA CHORLAMOQDA

9-iyul kuni davlatimiz rahbari yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, infratuzilmasini yaxshilash va tirbandliklarni kamaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizda muhim o'rin tutgan yo'llar masalasi muhokama etilib, qator tashabbuslar ilgari surildi.

Ochiq gap, biror manzilga bormoqchi bo'lgan kishi, avvalo, yo'l, uning qay ahvolda ekanini haqida o'ylaydi. Agar yo'l ravon bo'lsa, yaxshi. Masofa uzoq bo'lsa-da, qanday borganingni sezmay ham qolasan. Aksincha bo'lsa, yo'l unmaydi. Bu asabuzarlik, charchoqqa sabab bo'ladi. Bir kunlik yo'l azobi hafta davomida lanj qiladi. Shuning uchun iqtisodiy, ijtimoiy sohalar rivoji bevosita yo'l ta'miri, uning qanday holatda ekaniga bog'liq. Yig'ilishda shu kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berildi.

Shuningdek, yig'ilishda yana bir muhim fakt aytildi. Ya'ni so'nggi yillarda yo'l qurilishi va ta'mirlashga 61 trillion so'm ajratilgani, bu — 2017-yilgacha berilgan mablag'lardan 3,5 barobar ko'p ekanini ta'kidlandi. Ha, keyingi yillarda yo'lsozlik, odamlarning uzog'ini yaqin qilishga qaratilgan real islohotlar amalga oshirildi. Ushbu maqolada yo'lsozlikdagi yangilanishlarni Qashqadaryo misolida ochib berishga urindik.

Vaqt ham, naqd ham tejaladigan bo'ldi

Ilgari Samarqand viloyatidan Shahrisabz shahriga qarab yo'lga chiqqan mehmon Qashqadaryo viloyati chegarasiga kirgach, bir oz yurib chappa burilardi. Shundan to'g'ri yurilsa, ko'hna Keshga borish mumkin edi. Ammo keyingi yillarda bu joydan ko'pchilik yurmay qo'ydi. Yo'lovchilar shoshilganida ham aylanma yo'ldan borar, shunchaki tomosha uchun kelayotganlar esa bu manzilni chetlab o'tardi. Bunga yetarlicha asos bor edi, albatta.

Ko'kdala tumanining Sho'rquduq qishlog'i hududidan boshlab, Chiroqchi tumani markaziga bog'lanadigan ushbu yo'lga ilk bor asfalt yotqizishganiga ellik yilga yaqinlashib qolgan. Keksalarning ta'kidlashicha, avval ushbu yo'l ancha yaxshi, serqatnov bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan ta'mirlab bo'lib boravergan. Ammo hech kim yo'l ta'miriga e'tibor bermagach, u shudgor qilingan yerdan ham yomon ahvolga kelib qolgan. Shu bois, haydovchilar mashinasiga shikast yetkazmaslik uchun bu yerdan o'tmaslikni afzal bilardi. Yurganlar o'n besh daqiqali masofani bir soatdan ko'proq vaqtda bosib o'tishga majbur edi.

— Qishlog'imiz hududidan o'tgan katta yo'l asfalt qilinganiga yarim asr bo'lib qoldi, — deydi Arabbandi qishlog'ida yashovchi mehnat faxriysi Rasul Normurodov. — Lekin bugun yo'lining o'tiz foizi ham qolmadi. Yo'l deb aytilgan ham emas. Ayniqsa, shu atrofdagi yashovchi aholi uchun tuman markaziga qatnov muammoga aylandi. Bu muammo faqat bizga emas, boshqalarga ham salbiy ta'sir qilmay qolmadi. Negaki, yerdan Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' tumanlari aholisi Toshkent va Samarqand shahriga qatnaydi. Hozir yangi avtomobililar Taxtaqoracha dovonidan o'tyapti. Bu yo'ldan ko'proq yuk mashinalari, avtobuslar harakatlanadi. Bilasiz, sayohatga keluvchilar asosan, avtobuslarda yuradi. Ayniqsa, Shahrisabzga keladigan mehmonlar ko'p. Qatnov uchun sharoit yaxshi bo'lsa, keluvchilar ham ko'p bo'ladi. Ammo yo'l talab darajasida emasdi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-dekabrda "G'elon" turistik-rekreatson zonasini va xalqaro umummasvumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Chiroqchi — Sho'rquduq avtomobil yo'lining 30 kilometr qismini uchinchi toifadagi yo'l darajasiga yetkazish va rekonstruksiya qilish belgilangandi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida yaqinda ushbu hududda ish boshlandi. Loyiha qiymati 300 milliard so'mdan ortiq, yo'lining umumiy kengligi 15 metr bo'ladi, qatnov qismi esa 9 metрни tashkil etadi. Shu paytgacha bu yo'lining umumiy kengligi 10 metрни tashkil etardi. Ayni paytda bu yerda 30 ga yaqin yo'lsoz, 20 ga yaqin zamonaviy texnika yordamida yo'l qurilishi ishlari boshlab yuborilgan.

— Ancha yillik orzumiz ushaladigan bo'ldi, — deydi Arabbandi mahallasi raisi Tolmas Qilmurodov. — Shu paytgacha yo'limizga e'tibor qaratilar, degan umidda yashadik. Bu yo'l yaqin yillarda ta'mirlanadi deb o'ylamagandik. Mana, qisqa fursatda bunyodkorlik ishlari boshlanib ketdi. Bundan aholimiz xursand. Mazkur yo'llar dillarni dillarga bog'laydi. Endi ko'hna Keshni tomosha qilish istagida kelayotgan xorijlik sayyoh ham bemalol, xavotirsiz o'tishi mumkin. Ilgari sayyohlar qatnovi uzluksiz bo'lgani bois, mahallamiz

xotin-qizlari o'z uylarida hunarmandlik ko'rgazmasini tashkil etgan, katta o'tov qurilib, uni milliy uslubda bezab qo'ygandi. Qiziquvchi xorijliklar bir to'xtab o'tardi. Shu jarayonda gillam to'qib, uni sayyohlarga sotishardi. Bu daromad manbai edi. Keyinchalik bu yerdan qatnovchilar ancha kamaydi. Shuning ta'sirida hunarmandlarimizning ishi bir oz to'xtab qolgandi. Endi yangi yo'l qurilib, qatnov ko'paysa, hunarmandlar yana xaridorini topadi.

Tog'liklar muammosi ortda qoldi

Bundan besh-olti yil oldin Shahrisabz tumanining tog'li Ko'l, G'elon, Sarchashma kabi qishloqlariga bormoqchi bo'lsangiz, hali yo'lga chiqmay fikringizdan qaytishingiz aniq edi. Sababi, tog' yo'li mashaqqatli bo'lib, u tomonlarga "Niva" yoki "Gazel"dan boshqa mashinada borib bo'lmadi. Bundan tashqari, bir kunda bir marta qatnaydigan mahalliy ulovdan qolib ketadigan bo'lsangiz, ertangi kungacha kutishga to'g'ri kelardi. Shunchaki tog' yo'li bo'lgani uchun boshqa yangil mashinalar yurmasligida emas, aksincha, yo'lining tashloq ekanini pand berardi.

— Qishlog'imiz baland tog'lar o'rtasida joylashgan. Shu bois, yog'ingarchilik ko'p bo'ladi, — deydi g'elonlik faxriy o'qituvchi Ro'ziyov Qurbonov. — Yoshligimda qishlog'imiz faqat yolg'izoyog' yo'l orqali boshqa qishloqlar bilan bog'langandi. Tuman markaziga borish uchun ot yoki eshakda yo'lga



tushishga to'g'ri kelardi. Keyinchalik yo'l bir oz kengaytirildi. Natijada yuk mashinalari harakatlanadigan bo'ldi. Asfalt qayoqda deysiz. Tosh yo'lini kengaytirganimiz ham katta yangilik edi. So'ng qishloq odamlari toqqa mos "Niva" xarid qilib, bir amallab qatnaydigan bo'ldi. Shunda ham saharda yo'lga chiqsangiz, tushdan so'ng Hisorak suv ombori oldidagi bekatga yetardik. Qishda yog'ingarchilik boshlanishi bilan tepaliklardan tosh tushib, yo'l berkilib qolardi. Bahor kelgach, qo'lga ketmon olib yo'l tozalashga tushardik. Tashvishimiz arimasdi. Shukrki, bugun muammolar ortda qoldi. Yo'llarimiz yangi qiyofaga kirdi. Hozir o'zingiz guvohi bo'lganingizdek, qishlog'imizga har qanday yangil mashinada hech bir muammossiz kelishingiz mumkin.

Tuman markazidan G'elon qishlog'igacha 80 kilometr dan ziyod masofa bor. Bu yo'l ilgari kamida olti-yetti soatda bosib o'tilardi. Bugun esa xohlagan mashinangizda uzog' i bilan ikki soatda manzilga yetasiz. Shuning o'ziga yetib yangilanishlarning olis qishloqlargacha yozib borayotganiga yorqin misoldir. O'zgarishlar yana davom etadi. Jumladan, joriy yilda Hisorak qishlog'idan G'elonga olib boradigan yo'lining 24 kilometrlik qismi ta'mirlanadi. Qiymati 169 milliard so'mdan ortiq bo'lgan loyiha yaqin kunlarda boshlanadi. Natijada aholi uchun yanada qulaylik yaratiladi.

"Qishlog'imiz obod manzilga aylandi"

O'n yildirki, birgina muammo hal etilmay kelinardi. Qishlog' keksalari umid bilan taqillatmagan idora eshigi qolmadi. Birov dardingga quloq tutay demaydi. Eshitgani ham "erta-indin bo'ladi", deya quuruq va'dadan nari o'tmaydi. Buyoqda aholi bahor kelishi bilan yurak hovuchlaydi. Ayniqsa, sel-toshqin bo'lganida yo'llarda qatnov to'xtaydi. Chunki qariyb qir yil avval hashar yo'li bilan qurilgan ko'priklar yaroqsiz bo'lib qolgan. Shu sabab yomg'irni kunlarda ko'priklardan o'tib bo'lmaydi. Uzoqdan qaragan kishi ko'priklar hali-beri qulashiga ishonmaydi. Yaqiniga kelgan zahoti



ladi. Elning kuchi birlikda ekaniga yana bir marta ishonidik. Yo'limiz birinchi marta asfalt bo'lyapti.

Darhaqiqat, "Ochiq budget" tizimi orqali aholi tashabbuslari amalga oshirilib, hududlarda yo'l infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha qancha ko'lami ishlar qilinmoqda. Ilgari hech qachon asfalt ko'rman ko'chalari ravon, qatnovga qulay holga keltirilyapti.

Masalan, 2023-yilning birinchi mavsumida viloyat bo'yicha umumiy hisobda 198 kilometr yo'l asfaltlangan, 19,9 kilometr ga esa shag'al to'kilgan. Bunga 77 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgan. Ikkinchi mavsumda esa 349 kilometr yangi yo'l barpo etilgan, 17,3 kilometr qismida esa shag'allashirtilgan, bu uchun 150 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflangan.

2024-yilning dastlabki mavsumida esa 416,2 kilometr ichki xo'jalik yo'llari asfaltlangan, 31,6 kilometr uchastkaga shag'al yotqizilib, umumiy hisobda 159 milliard so'mlik ish bajarilgan. Keyingi mavsumda 329 kilometr yo'l yangilanib, 24 kilometr qismiga shag'al to'kilgan. Bu ishlar uchun 128 milliard so'm ajratilgan.

Joriy yilda esa ko'zlangan maqsad yanada yuqori: yilning ilk mavsumida 477 kilometr dan ziyod yo'l ta'mirlanishi rejalashtirilgan.

Sifat va samara ortib bormoqda

Bugun Qashqadaryo viloyatida jami 21 ming 673 kilometr avtomobil yo'li mavjud. Shundan umumiy foydalanishdagi yo'llar 3467 kilometrdir. Qolgan qismi ichki xo'jalik yo'llari hisoblanadi. Soha mutaxassislarining aytishicha, keyingi yillarda viloyatda avtomobil yo'llari yerdan va ta'mirlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, joriy yilda 2,175 milliard so'm evaziga jami 2766 kilometr uzunlikdagi yo'l qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash rejalashtirilgan.

— Ijtimoiy ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 211,8 milliard so'mlik yo'l qurilishi va ta'mirlash ishlari bajarildi, — deydi Qashqadaryo viloyati Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i Bo'ri Fayziyev. — Umumfoydalanishdagi yo'llarni rekonstruksiya qilishda 104 milliard so'mlik ish bajarilib, 20 kilometr yo'l foydalanishga topshirildi. Jumladan, Qarshi shahri ayatlanma yo'lining 5 kilometr qismi, A380 G'uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu yo'li, shahar ko'chalari, sanoat zonalarida hamda "Yangi O'zbekiston" massivlarida turizm obyektlariga olib boruvchi yo'llar qurildi.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida esa 152,7 milliard so'm hisobidan og'ir ahvdagi 83 ta mahallaning 405 kilometr ichki yo'li ta'mirlanadi. Shuningdek, "Zarbdor tajribasi" asosida drayver loyihalarni infratuzilma bilan ta'mirlash maqsadida 14,5 kilometr, "Hududlarni jadal kompleks rivojlantirish" dasturi doirasida esa yana 6,5 kilometr ichki yo'l ta'mirlanishi ko'zda tutilgan. Davlatimiz rahbarining Qashqadaryoga shu yil iyun oyidagi tashrif chog'ida bergan ko'rsatmalariga asosan, Qarshi — Shahrisabz — Kitob magistral yo'lining 106 kilometri rekonstruksiya qilinib, ikki tasmandan to'rt tasmsga o'tkaziladi. Bu loyiha doirasida Qamashi va Yakkabog' markazidan aylanib o'tadigan 34 kilometrli yangi yo'l ham barpo etiladi. Islom taraqqiyot banki ishtirokida Toshkent — Termez yo'lining viloyatdan o'tgan 60 kilometrlik qismi ham to'rt tasmail qilinib, sement-beton qoplamaga o'tkaziladi.

So'nggi yillarda sohadagi islohotlar o'z samarasini bera boshladi. Muhimi, yillar davomida odamlarni qiynab kelgan muammolar bartaraf etilib, aholi turmush tarzi yaxshilanishi uchun munosib sharoit yaratilmoqda. Yangi yo'llar nafaqat manzillarni, balki ko'ngillarni ko'ngillarga ham yaqinlashtirmoqda. Natijada qalblar ishonch nuridan porlab, har bir manzil farovonlikka yuz tuyapti.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



TA'LIMDAGI DUNYOVIVLIK

VIJDON ERKINLIGI TARBIYASIDA MUHIM OMIL

Nuqtayi nazar



Gulchehra RIXSIYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori, professor

Globalshuv davrida inson qadri, erkin fikrlash huquqi va vijdon erkinligi eng muhim ijtimoiy qadriyatlardan biriga aylanmoqda. Xalqaro hamjamiyat, zamonaviy demokratik jamiyatlar va inson huquqlari bo'yicha asosiy hujjat — BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida bu erkinlik alohida e'tirof etilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida ham "Har kim vijdon erkinligiga ega" deya belgilab qo'yilgan.

moddalarida yozib qo'yilgan. Demak, ta'lim ham mamlakatimizda aynan shunga mos tarzda tashkil etilgan. Shu o'rinda ta'limning dunyoviyliigi xususida to'xtalish joiz.

Dunyoviylik tushunchasi ko'p hollarda noto'g'ri talqin qilinadi. Ba'zan esa vijdon erkinligiga qarama-qarshi qo'yiladi. Aslida, dunyoviylik — dini inkor etish emas, balki barcha e'tiqodlarga nisbatan betaraf, adolati va neytral yondashuvni anglatadi. Dunyoviy ta'lim tizimi yosh avlodga diniy emas, balki ilmiy asoslangan bilimlar berishga yo'naltirilgan bo'lib, shu bilan birga, ularning vijdon erkinligini to'liq ta'minlashga qaratilgan. Bu yondashuv yoshlarni bir e'tiqodga majburlamasdan, ularning erkin fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Keling, shu o'rinda ayrim xorijiy mamlakatlardagi tajribani ko'rib chiqaylik. Masalan, Fransiyada 1905-yildan boshlab qabul qilingan dunyoviylik to'g'risidagi qonun asosida barcha diniy tashkilotlar va davlat bir-biridan ajratilgan. Maktablar e'tiqodni emas, balki ilmiy fikrlashni targ'ib qiladi. Shunga qaramay, bu mamlakatda har bir shaxsning vijdon erkinligi qat'iy himoyalangan.

Vijdon erkinligi jamiyatda turli fikrlar, e'tiqodlar va madaniyatlarining birga yashashiga imkon yaratadi. Xususan, fikr erkinligi va tolerantlikni shakllantiradi. Bu esa yoshlar orasida bag'rikenglik, sabr-toqat, hurmat kabi fazilatlarni kuchaytiradi, shaxsiy mas'uliyat va axloqiy immunitetni oshiradi.

Inson o'z e'tiqodiga, vijdoniga tayangan holda qaror qabul qilganida, axloqiy barqarorligi mustahkam bo'ladi. Bu yoshlarni g'arazli mafkuralardan, ekstremizm va radikalizm xavfidan himoya qiladi.

Yana bir muhim jihat, vijdon erkinligi ijodkorlik va tanqidiy fikrlashga zamin yaratadi. Erkin fikrlash muhitida ulg'aygan yoshlar mustaqil tahlil qilish, muammolarga yangicha yondashish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu esa zamonaviy ta'lim va innovatsiyalar uchun muhim poydevordir. Albatta, bularning barchasi tarbiya va ta'lim jarayonlari bilan chambarchas bog'liq.

Bilamizki, O'zbekiston — boshqaruvi respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Bu Asosiy qonunimizning dastlabki

birinchi o'ringa qo'yadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan diniy erkinliklar to'liq kafolatlangan.

Skandinaviya davlatlarida vijdon erkinligi nafaqat huquqiy, balki tarbiyaviy mezon sifatida maktabgacha ta'limdan boshlab yosh avlodga singdiriladi. Bu mamlakatlarda bolalar yoshligidanoq boshqa insonlarning diniy va madaniy qarashlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatiladi. Bunda ta'lim tizimi diniy neytrallik tamoyiliga asoslanadi, biroq har bir o'quvchining e'tiqodiga hurmat bilan qaraladi.

AQSHda ham e'tiqod va vijdon erkinligi qat'iy himoya qilinadi. Maktablarda turli e'tiqodga mansub o'quvchilarga teng sharoit yaratiladi. Bunga, o'z navbatida, milliy birlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi.

Malayziyada diniy xilma-xillikni inobatga olib, davlat siyosatida barcha diniy qarashlarga nisbatan adolati yondashuv yo'lga qo'yilgan. Bu esa yoshlarda o'z madaniyatiga sadoqat bilan birga, boshqa din vakillariga nisbatan tolerantlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Dunyoviy davlatni rivojlantirish yo'lida ta'lim yo'nalishidagi dunyoviylikni

foydalanish xususida bilimlar berib borilishi zarur.

Ta'limdagi dunyoviylik ta'lim jarayonida o'quvchilarda diniy aqida va qarashlardan xoli tarzda ilmiy bilimlarni, mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish, qarashlar xilma-xilligini hurmat qilish, umumjamiyat manfaatlariga hissa qo'shish g'oyalari tayanishdan iboratdir.

Ma'lumki, mamlakatimizdan 130 dan ortiq millat vakillari yashaydi va ular turli dinlarga e'tiqod qiladi. Maktabu universitetlarda ularning hammasi yonma-yon, bir tizimda ta'lim oladi. Demak, yuqorida qayd etganimiz — vijdon erkinligi tushunchasining to'g'ri anglanishi jamiyat uchun, umuman, har birimiz uchun nihoyatda muhim.

Tasavvur qiling, ta'limda diniy betaraflikni saqlash va diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'ymaydigan muhitni ta'minlab bermasak nima bo'ladi? Albatta, bu vijdon erkinligi ta'minlanmasligiga olib keladi. Aslida, biz yoshlar qalbiga insonparvarlik va adolat, do'stlik va hamjihatlik, milliy va umuminsoniy g'oyalarga hurmat kabi qadriyatlarini singdirib borishimiz, axloqiy masalalarga maqbul yechim topish ko'nikmalarini shakllantirishimiz kerak. Aks holda, vijdon erkinligi noto'g'ri talqin qilinib, diniy radikalizm va ekstremistik faoliyatni oqlashga urinishlar paydo bo'ladi. Bu esa ijtimoiy xavfli holatlarning yuzaga chiqishiga olib keladi.

Agar biz vijdon erkinligini yoshlarga to'g'ri anglatsak, turli diniy e'tiqod va ta'limotlar tarixi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy tendensiyalari to'g'risida xolisona bilim berishni, shuningdek, turli dinlar, madaniyatlar va dunyoqarashlarga nisbatan hurmat, bag'rikenglik va tushunish muhitini ta'minlasak, ta'limda dunyoviylikning hamma ijobiy jihatlarni ko'rsata olamiz.

Vijdon erkinligi va insonning ichki axloqiy holati, jamiyatdagi bag'rikenglik va hurmat islom dimida ham chuqur o'rganilgan va qadrlangan. Ta'limdagi dunyoviylik ham yoshlarning yangilikka intilishi, fanlarni chuqur o'zlashtirishi, o'z hayotini farovonlashtirishi, mamlakatni rivojlantirish yo'lida bilimlarini charxlashi va foydali tadqiqotlar natijalarini hayotga joriy qilishi bilan ko'rinadi.

Demak, vijdon erkinligi, bu — insoniyatning eng muqaddas huquqlaridan biri. U nafaqat huquqiy, balki tarbiyaviy, ma'naviy va axloqiy omil sifatida jamiyat rivojida beqiyos o'rin tutadi. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida mazkur erkinlik sog'lom fikrli, ma'naviy boy va bag'rikeng shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi. Uni asrash, to'g'ri yo'naltirish va himoya qilish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Xorijdagi vatandosh

Bugun ilm-fan tobora rivojlanmoqda. Bu yo'lda bir lahza harakatdan to'xtash insonni maqsadlaridan ancha uzoqlashtirib qo'yishi hech gap emas. Jamiyat ravnaqini ko'zlab, yurtdan yiroqda umrini ilmga bahshida qilib yurgan vatandoshlarimiz ancha. Bunday fidoyilar qanchalik olisda bo'lmasin, yuragi vatan sari intilaveradi. Vatandoshimiz, AQSHda ilmiy faoliyat yuritayotgan taniqli olimi Nilufar Qahhorova shunday insonlardan.



ILM IZLAB UMMON ORTIGA

Qahramonimiz maktab va litseyda mustahkam zehni, tirishqoqligi bilan ajralib turar, boshlagan ishni oxiriga yetkazmay qo'ymasdi. Birinchi urinishdayoq O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi bo'lgan Nilufar ilmga chuqur sho'ng'idi. Universitetni muvaffaqiyatli tamomlagach, qalбини xorijda o'qish, chet el tajribasini vatanga olib kelish istagi egalladi. Shu maqsadi ortidan ildam yurib, AQSHning eng nufuzli ilm maskanlaridan biri — Garvard universitetida tahsil olish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

U Garvarddagi tahsilni shunchaki o'qish sifatida qabul qilmadi. Aksincha, bu odim uning hayotiy maqsadi va missiyasining boshlanishi bo'ldi. Nilufar Qahhorova AQSHda tibbiyot va biotexnologiya sohalarida tadqiqot olib bordi, zamonaviy tibbiy yondashuvlarni o'rganib, amaliyotda sinovdan o'tkazdi. Hozir u tibbiyot sohasida falsafa doktorligi (PhD) darajasini olish ustida izlanayotgan. Asosiy yo'nalishi — onkologik kasalliklarni bartaraf etish. Bu sohada u xalqaro mutaxassislar bilan hamkorlikda klinik tadqiqotlar, biomarkerlar tahlili va profilaktik yutuqlar ustida ishlamoqda.

— Onkologik kasalliklar O'zbekistonda nisbatan kam, ammo o'lim soni ko'p, bunga sabab tibbiy ko'rikka befarq bo'lish, — deydi u.

Nilufar Qahhorova faqat laboratoriya va auditoriya bilan cheklanib qolmay, bir paytning o'zida AQSHda istiqomat qilayotgan o'zbekistonliklar orasida milliy ong, o'zlik va ma'naviyatni saqlab qolish maqsadida "Turon" assotsiatsiyasini tashkil etdi. "Zakovat" o'yinlarini o'tkazib, yosh avlodning zehni mustahkamlash, ilmga ishtiyoqini oshirish maqsadida samarali ishlamoqda. Kitobxonlik kechalari, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar uyushtirib kelayotir.

— O'zga yurtda yurganda odam o'z vatani, tili, madaniyatiga muhabbatni yanada chuqur his qiladi. AQSHdagi ham yurtlarimizni

birlashtirish, ularning farzandlariga o'zbekcha fikrlash, kitob o'qish kabi ko'nikmalarni singdirish — jamiyatimizning asosiy maqsadi, — deydi Nilufar Qahhorova. — Qolaversa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan "Vatandoshlar" jamoat fondi biz kabi xorijda yashab, vatan sog'inchi bilan yurganlar uchun mustahkam ko'priklarni o'rnatib beradi. Endi vatanimiz bilan osonlikcha muloqotga kirishadigan, loyihalarni bilmal o'rtoqlashadigan bo'ladi.

Nilufar Qahhorova AQSHda Prezidentimiz bilan uchrashuvni xotirlar ekan, to'liqlanib bunday dedi:

— Davlatimiz rahbari biz bilan samimiy muloqot qildi. O'shanda men yettita loyiha haqida gapirgan, takliflar bildirgan edim. Bugun o'sha loyihalarning ko'pi amalga oshirilayotganini ko'rib, o'zim olisda bo'lsam-da, yurt e'tiboridan chetda emasligimni bildim. Bu biz kabi ilm yo'lidagi insonlar uchun g'ayrat manbai bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda yurtimiz shifokorlari ham Garvard universitetiga borib, malaka oshirmoqda. Bunday holat bugunga qadar bo'lmagan. Hozir onkologiya sohasida O'zbekiston bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan loyiha ustida ishlayapmiz. Shuningdek, tibbiy axborotni ommalashtirish, kasalliklarni erta aniqlashga oid tadbirlar, yoshlar uchun onlayn seminarlar va mahorat darslari o'tish ham rejamizda bor.

Nilufarning zamonaviy ilm-fan, milliy ma'naviyat va jamoatchilik faoliyatini uyg'un olib borayotganini alohida ta'kidlash o'rinli. Uning faoliyati yosh avlodga namuna, har bir vatandosh uchun iftixor manbaidir. Xorijda bo'lsa ham qalбини vatanga tutashtirib turgan kuch elga sadoqat, millatga xizmat qilish ozusidir.

Abdurauif ZOKIROV,
"Vatandoshlar" jamoat fondi
bo'lim boshlig'i

Mulohaza

30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan uchrashdi. Davlatimiz rahbarining samimiy, mehr to'la tabrigi — har bir yigit-qizning qalbiga ilhom bag'ishladi. Bu oddiy bir tabrik emas, balki O'zbekiston yetakchisining mamlakat yoshlariga qaratilgan ishonchi, mas'uliyati va Vatanga muhabbat haqidagi oliy da'vati bo'ldi.



Olimjon O'SAROV,
Mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi

Prezident o'z so'zida yoshlarga qarab: "Yangi tarixni sizlar yozasiz. Yangi O'zbekistonda sizlar barpo etasiz. Sizlar bizning faxrimiz, orzu-umidimiz", deya alohida ta'kidladi. Bu gaplar yoshlar uchun faqat maqtov emas, bu — yuksak ishonch. Uni oqlash uchun esa faqat bilim olish kifoya qilmaydi. Vatanni sevish, yurt uchun xizmat qilish, uni himoya qilish, o'z ustida ishlash, xalqqa foyda keltirish — ushbu ezuq qadriyatlar eng oliy maqsad bo'lishi kerak.

Har bir yosh yigit-qiz — yurtimizning kelajagi. Bugungi yoshlarnafaqat zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirmoqda, balki san'at, sport, ilm-fan sohalarida ham ulkan yutuqlarga erishmoqda. Davlatimiz

rahbari ta'kidlaganidek, eng asosiy jihat bu — vatanparvarlik. Chunki Vatanga muhabbat — har bir yosh uchun eng kuchli tayanch. Unga ega bo'lgan yigit-qizni, Vatan himoyachisini hech qanday to'siq yo'ldan qaytara olmaydi. Shu ma'noda, Prezidentimizning tabrigi Yoshlar kuni munosabati bilangina yo'klangani yo'q. Bu nutq har bir yoshning qalbiga "Men shu

aziz Vatan uchun nima qilishim kerak?" degan savolga javob bo'ldi.

Keyingi yillarda yoshlarimiz uchun yaratilayotgan imkoniyatlar — g'ayratga, ijodga, Vatanga xizmatga chorlov. Yoshlarimizga ta'lim, kasb, texnologiya, ish va startaplar sohasida keng imkoniyatlar berilyapti. Bularning baridan bir umid bor. Bu ham bo'lsa, har bir yoshning o'z orzularini amalga oshirishi, o'ziga, oilasiga, xalqiga foydasi tegishidir. Shunday ekan, mavjud imkoniyatlarga imtiyoz, qulayliklar deb emas, balki yuksak mas'uliyat, ulug' maqsad yo'lidagi ezuq intilish deb qarash yarashadi. Chunki yaratilgan shunday sharoitlarda ulg'ayotgan yoshlardan Vatan ham, xalq ham olam-olam umid qilishga haqli.

Bugungi yoshlar uchun faqat bilim bo'lish yetarli emas. Ular fidoyi bo'lishi, shu aziz Vatan uchun jonfido xizmat qilishga tayyor turishi kerak. Aslida, mana shu haqiqiy vatanparvarlarning a'moli bo'ladi.

Mamlakatimizda "G'alaba bog'i"ning ma'naviy-axloqiy ta'siri kengayib bormoqda. "Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal", deydi dono xalqimiz. Darhaqiqat, muzey ekspozitsiyalari, bog' hududida muntazam yangrab turgan da'vatkor she'rlarni yurakka to'g'ridan to'g'ri singdirish, vatanparvarlik ma'rifatining oliy namunasi bo'lib xizmat qilmoqda.

OLTIN AVLODGA OLIY DA'VAT



Prezidentimizning nutqida "G'alaba bog'i"da ochilgan "Millat fidoyilari" monumenti ham alohida tilga olindi. Majmuada Vatan uchun jonini fido qilgan 196 nafar mardning ismlari abadiyatga muhrlangan. Bu joyga borgan har bir yosh his qiladi: Vatan uchun jasorat kerak, jasorat uchun uning qadar muhabbat, e'tiqod kerak. Mana shunday ulug'vor matonat maydonida qahramonlar xotirasiga cheksiz hurmat,

faxr, iftixor qalbida jo'sh uradi. "G'alaba bog'i"dagi ruhiyat, jangovar ma'naviy muhitdan bu joyda bo'lgan har bir yosh yigit-qiz "Vatanga muhabbat vakinasini" ni olib chiqadi. Ya'ni ko'ksini kerib, ona yurt himoyasiga har daqiqada tayyor Vatan posbonlariga aylandi, desak mubolag'a bo'lmas.

Yangi tarixni yoshlar yaratadi, yozadi. Islohotlar samaradorligi — yoshlarning

qo'lida. Bugun dunyo juda tez, shitob bilan o'zgarayotgan. Iqtisodiyot, ilm, texnologiya — har bir sohada raqobat kuchaygan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bizdagi tarixiy imkoniyat bu — bizning oltin yoshlarimiz. Yangi taraqqiyot, yangi yuksalish, yangi tarix, yangi O'zbekiston — yoshlarimizning intellektual va ma'naviy qudratiga bog'liq.

Shuning uchun yoshlar, birdam va bardam bo'lib, bor bilim, g'ayrat, mehnat va fidoyiliklarini yurt taraqqiyotiga safarbar qiladi. Qisqa qilib aytganda, yoshlarimiz faqat orzu bilan cheklanib qolmasin — harakat qilsin. Va albatta, shunday bo'ladi, bunga ishonchimiz ham komil. Chunki Prezidentimizning yoshlarga samimiy tabrigi yigit-qizlarimizdagi milliy o'zlikni, shijoatni uyg'otdi, jo'sh urdirdi. Bugungi tinchlik, yaratilayotgan imkoniyatlar, berilgan ishonch — bizdan faqat bitta narsani talab qiladi: Vatanni sevish, fidokor bo'lish, unga foyda, ravnaq keltirish.

2025-yil 30-iyun kuni O'zbekistonda yoshlar siyosati tarixiga oltin harflar bilan yoziladigan kun bo'lib qoladi. Bu bejiz emas. Buni Prezidentimizning yoshlarimiz tomonidan quvonch bilan takror va takror aytilayotgan mana bu o'tashin da'vati yaqqol ko'rsatib turibdi: "Birinchi va Ikkinchi Reinessanni buyuk alloma va mutafakkirlarimiz yaratgan bo'lsa, bugun tarix navbatini sizlarga bermoqda. Iшонchimiz komil, sizlar barcha sohalarida mamlakatimiz bayrog'ini baland ko'tarishga qodirsiz.

Sizlar — Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz!".

Zomin seminari

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning alohida e'tibori bilan iste'dodli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijodiy va ilmiy izlanishlarini rag'batlantirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, badiiy ijod sohasida o'z iste'dodini namoyon etayotgan yoshlar uchun imkoniyatlar yaratish yo'lida ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda.



PURVIQOR TOG'LAR BAG'RIDA

jilolanar soʻz



Ma'mura ZOHIDOVA, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bo'lim boshlig'i

Milliy adabiyotimiz kelajagini, shubhasiz, mamlakatimiz yoshlari yaratadi. Olam ahli adabiyotning mislsiz qadratiga muhtoj. Dunyoning turli qit'alaridagi tahlilki vaziyatlar, notinchliklar zaminning umuminchiligi yo'lida zarur choralar ko'rishni talab qiladi. Jumladan, dunyoda egizlik va insonparvarlik tarannum etilgan badiiy adabiyot namunalari yaratish, kelajak avlodni yuqori darajada kitobxon bo'lishga da'vat etishni taqozo etayotir.

Yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirish yo'lida barcha harakatlar asosi va manbaini ham, shubhasiz, badiiy adabiyot tashkil etadi. Jahon adabiyoti bilan bo'yilasha oladigan, dunyoning turli tillariga o'g'irilib, qo'lma-qo'l o'qiladigan zamonaviy milliy adabiyot namunalari yaratilishi yo'lida ko'plab xayri tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Bular orasida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan va doimiy qo'llab-quvvatlovdan qo'ra yuqori baholanadigan, barcha yosh ijodkorlar intiqib kutadigan anjuman borki, u Respublika yosh ijodkorlarining an'anaviy Zomin seminari. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan doimiy ravishda o'tkazib kelinyotgan ushbu seminar badiiy adabiyot sohasida qalam tebratayotgan yoshlar ijodini

yuzga chiqarish, ularni qo'llab-quvvatlash, tanikli shoir va yozuvchilar, dramaturg va tarjimonlarning hayotiy tajribalari, mahorat saboqlaridan bahramand bo'lishlariga imkon berayotir.

Salkam o'ttiz yillik tarixga ega ushbu seminar faol ishtirok etgan ko'plab iste'dodlar bugungi kunda adabiyotning turli janrlarida qalam tebratib, adabiyotimiz rivojiga hissa qo'shib kelmoqda. Seminarining o'z davridagi faol ishtirokchilari bo'lgan Orif To'xtash, Vohid Luqmon, Zilola Xo'janiyozova, Guljamol Asqarova, Mehriroz Abbosova, Xoliyov Safarov, Bayram Ali, Nurmuhammad Aziz, Jamoliddin Badalov, Suhrob Ziyo, Gulrux Xudoyorova, Xurshid Abdurashid, Shahriyot Shavkat kabi ko'plab ijodkorlar nomini bugun adabiy maydonda yaxshi bilishadi. Seminar oq yo'l bergan bu ijodkorlar so'z maydonida o'z muxlislarini topish bilan birga, jamiyatning turli bo'g'inlarida mehnat qilib, ma'naviyatni yanada rivojlantirish, ezgu g'oyalarni yuksak va olijanoq maqsadlarni amalga oshirish, kitobxonlikni yanada kengaytirish yo'lida mehnat qilmoqda.

Seminar joriy yilda ham an'anaga ko'ra uch bosqichda o'tkazildi. Sababi mamlakatimizning eng chekka hududlarida badiiy ijod bilan shug'ullanayotgan yoshlarni ham aniqlash va adabiy jarayonlarga tortish zarur bo'ladi. Bu jarayonda Yozuvchilar uyushmasining hududlardagi bo'limlari katta ko'mak ko'rsatdi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 1-aprelda qabul qilingan "Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, atoqli adiblar nomi bilan yuritiladigan har bir ijod maktabidan ham besh nafardan o'quvchi saralab olindi. Bu xayri tashabbus ortida ijod maktablarida ijodiy muhitni yanada yaxshilash, ularda ta'lim olayotgan iste'dodli o'quvchilarni ko'llab-quvvatlash, adabiyotning katta maydoniga tortishdek ezgu maqsad ham mujassam. Bu



maktablarda ham Yozuvchilar uyushmasi a'zolari ishtirokida seminarning maktab bosqichi qizg'in tashkil etildi. Natijada 45 nafar iste'dodli o'quvchi seminar ishtirok etish uchun yo'llanma oldi.

Jami 128 nafar yosh ijodkor Respublika bosqichida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Olis hududlardan kelgan ishtirokchilar bir kun avval Do'rmon ijod uyida kutib olindi. Shundan so'ng seminarining ilk kunida shoir va yozuvchilar, barcha ishtirokchilar birgalikda Adilbar xiyobonidagi mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yishdi. Bog' bo'yilab milliy adabiyotimiz yaratuvchilari ziyorat qilindi. Shundan so'ng manzil sari yo'l olindi. Do'rmon ijod uyi hovlisidayoq boshlangan adabiy suhbatlar yo'l davomida

yanada qizg'in tus oldi. Ijod shukhi, so'z hayrati ijodkorlar, ayni paytda adabiyotsevarlar ko'nglida o'zgacha kayfiyat paydo qildi.

Nihoyat, avtobuslar Jizzax viloyati tog'lari bag'rida joylashgan muazzam koshonaga yetib keldi. Yuqori darajadagi xizmat va sharoitlarda yosh ijodkorlar 3 kun davomida o'zgacha ijodiy muhitda bo'ldi. Seminar davomida yosh ijodkorlar ustoz shoir va yozuvchilar bilan suhbat qurib, tengdoshlari ijodi bilan tanishib bordi. Shu bilan birga, yutuqlar va kamchiliklar haqida fikrlar tinglandi.

Seminar ishtirokchilari Yozuvchilar uyushmasining bir qator a'zolari, ijtimoiy va ijodiy faol, keng jamoatchilik o'rtasida obro'-e'tibor qozongan adiblar — Mahmud Toir, Kenesboy Karimov, Zuhridin Isomiddin, Rustam Musurmon, Gavhar Ibodullayeva,

Salim Ashur, Abduqayum Yo'ldoshev, G'o'fir Shermuhammad, O'ktam Mirzayor, Nodira Do'stxo'jayeva, Shodmon Sulaymon kabi ustoz ijodkorlardan saboq olib bordi.

Badiiy adabiyotning she'riyat, nasr, dramaturgiya, bolalar adabiyoti, badiiy tarjima, badiiy publitsistika, adabiy tanqid yo'nalishlarida berilgan saboqlardan yoshlar ijod mas'uliyati va so'z zalvorini chuqur his qildi. Tevarigi tog'lar bilan o'rallagan oromgohning salqin hovlisi bag'rida yozlik shiyonlarda o'tilgan darslar, ijodiy suhbat jarayonlari yosh qalamkashlar uchun benihoya foydali bo'ldi. Maroqli va qiziqarli suhbatlar, eng chiroyli va unutilmas lahzalar, ijodkor do'stlar bilan tanishuvlar va ayniqsa, bir umrga tatigulik saboqlar yoshlarga o'zgacha kayfiyat taqdim etgani shubhasiz.

Seminar jarayonida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi boshlig'i Otabek Hasanov bilan yoshlar uchrashuvi tashkil etildi. Bugungi murakkab globalashuv davrida yosh avlodni turli mafkuraviy, g'oyaviy xurujlardan himoya qilish — barcha qalam tebratayotgan, so'z ustida ishlayotganlarning muhim vazifasligi, eng xavfli jang — mafkura jangi ekanini qayd etilib, bunda har bir ijodkor kuchli jangchi ekanligi ta'kidlandi.

Ayni paytda Respublika yosh ijodkorlarining bir davrada subhadda bo'lishi, o'z ijodining yutuq va kamchiliklari borasida muhokamalarda qatnashishi, albatta, foydali bo'ldi.

Yoshlarning ko'zlarida mamnunlik, hayotsevarlik, shu bilan birga, adabiyotdek ulug' olamga daxldorlik va mas'uliyat zalvoridan yongan cho'g'ni ko'rmoq, his qilmoq mumkin edi.

She'riyat sho'basida ustozlik qilgan shoirimiz tomonidan Muhammad Hodiye, Latofat Amirova, Bahodir Jovliye, Kamola Abdiyeva, nasr yo'nalishida Mehriroz Ortiqova, Laylo Bekmurodova, shuningdek,

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi Subhidam Abdulhamidova, badiiy publitsistikada Alimjan Baxitbayev, adabiy tarjima yo'nalishida Lola Ibrohimova, Dostonbek Ahmadov kabi yosh ijodkorlar alohida e'tirof etildi.

Barcha ustozlarning mushtarak maslahati mohiyatini ulkan, ming yillik adabiyotimiz, o'tgan asr adabiyoti yaratuvchilarining boy ilmiy merosi, shuningdek, zamonaviy adabiyotimiz asarlarini chuqur o'rganish, o'z-o'zida adabiy-estetik didni, badiiy asar yaxlitligini yuzaga keltirish va tilini yaratish ko'nikmasini shakllantirish, tasvirda o'z uslubini topish zarurligi kabilar tashkil etdi.

Quvonarlisi shundaki, bu muhtasham maydonda bir vaqtning o'zida 128 nafar yosh kitobxon bir davraga to'plandi. Mamlakatimizning turli tomonlaridan kelgan, hayotga qarashlari o'ziga xos bo'lgan bu yoshlarning bir-birlari bilan tez munosabat o'rnatib, ishoralardan oq ingilashlari ham bejiz emas. So'zning sehiri va qudratini his qilishdan, o'zining borliqqa aydar so'zi borligidan dalolat edi bu.

Seminar davomida "Zomin ilhomlari" fotoko'rgazmasi ham bo'lib o'tdi. Fotoko'rgazmada an'anaviy Zomin seminarining besh yillik tarixiga oid jami 30 ga yaqin surat namoyish etildi. Lahzalar suvrati shu qadar jonli va ta'sirchan ediki, mazkur seminarning yaqin tarixidan darak berish bilan bir vaqtda, hali bu kabi ezgu ishlar ko'p davom etishiga ishora qilayotgandek.

Ikki kun davomida "Zomin oqshomlari" she'riyat kechasi bo'lib o'tdi. Tadbir yakunida ishtirokchilarga qimmatbaho esdalik sovg'alari, maxsus sertifikat, statuetka va kitoblar jamlangani taqdim etildi.

Ijodkor yoshlarning bir umr yodida qoladigan, ustozlar maslahatlariga, o'g'itlariga muxsharf etadigan ushbu adabiyot bayrami barchaga murorak bo'lsin, deymiz.

Taqdimot

Milliy matbuotimiz shonli yo'li va an'analariga ega, uning o'z maktabi bor. Lekin bu tarix shu paytgacha yetarli o'rganilmagan edi. Faqat shu yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislar uchun bir necha soat dars belgilangan va bir-ikki izlanuvchi-tadqiqotchilar muayyan davrlar bo'yicha ayrim o'rganishlarni olib borishgan, xolos.

Prezidentimizning 2022-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "O'zbek jurnalistikasi antologiyasi" kitobini nashrga tayyorlash belgilangani, buning uchun zarur mablag' ajratilgani sohaning boy va shonli tarixini keng ommaga olib chiqish imkonini berdi.

Sohada faoliyat yuritgan va yuritayotgan har bir jurnalist istagan mavzuda, istagan shaxs haqida har kuni maqola va hatto kitob yozishi mumkin. Lekin jurnalistlar haqida maqola yoki kitob shaklidagi to'plam har kuni ham yozilavermaydi. Yaqinda Jurnalistlar uyushmasi va qator mas'ul tashkilotlar, jurnalist kadrlar tayyorlovchi

"O'ZBEK JURNALISTIKASI ANTOLOGIYASI" — SHONLI TARIX KO'ZGUSI

oliy ta'lim muassasalarida hamkorligida tayyorlangan "O'zbek jurnalistikasi antologiyasi" kitobining 2 tomligi nashr etildi. Bu jarayonga soha olimlari, ustoz va tajribali jurnalistlar jalb etildi, ishchi va ijodiy guruhlar shakllantirildi.

O'zbek jurnalistikasi tarixini tadqiq etish, shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqida kengroq ma'lumotlarga ega bo'lish, har bir davrning eng yaxshi jurnalistik materiallari — asarlarini yoshlarga, kelgusi avlodlarga yetkazish muhim masala, — deydi O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov. — To'g'ri, shu paytgacha media sohaga doir ko'plab darslik va qo'llanmalar, milliy jurnalistikamiz shakllanishi va rivojlanish bosqichlariga oid ma'lumotlar o'rin olgan kitoblar nashr etilgan. Ammo ayni kunga qadar milliy jurnalistika antologiyasi yaxlit holatda yaratilmagan edi.

Poytaxtimizdagi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida bo'lib o'tgan kitob taqdimoti marosimida sohaning ilg'or vakillari, ustozlar, mutaxassis va talabalar jam bo'ldi. So'zga chiqqan mutaxassislar qo'shildi nashrga tayyorlash oson kechmagani, ish jarayonida arxiv va kutubxona fondlarida saqlanayotgan tarixiy

hujjat va gazetalardan fotonusxalar, turli davrlarda chop etilgan eng sara publitsistik maqolalar, ocherk va felyetonlardan namuna va parchalar olishga to'g'ri kelgani haqida so'z yuritdi. Shuningdek, mazkur antologiyaga milliy jurnalistikamiz va uning shakllanish bosqichlariga doir eng muhim ma'lumotlarni kiritishga harakat qilingani alohida ta'kidlandi.

O'rganishlar, izlanishlar, bildirilgan taklif va tavsiyalar asosida antologiya "Qadimgi davr jurnalistikasidan lavhalar", "Milliy jurnalistika shakllanishi va takomilining asosi (o'rta asrlar)", "Jadid jurnalistikasi (XIX asr

o'ziga xos bo'lgan, o'z maktabi borligini, o'zbek jurnalistikasi umuminsoniyligi qadriyatlariga suyangan holda milliylikni asrab-aylash yo'lida xizmat qilib kelayotganini yana bir bor anglaymiz.

Albatta, ilk tajriba sifatida nashrga tayyorlangan mazkur kitobda muayyan kamchilik va noqliklilar bo'lishi, sohada o'z o'rminga ega yoki milliy jurnalistikamiz rivojiga katta hissa qo'shgan ayrim ustozlar to'plamga kirmay qolgan bo'lishi mumkin. Mutasaddilar bildirishgan bu boradagi ishlar davom ettirilib, kitobning 3- va 4-jildlarini ham nashr etish rejalashtirilgan. Demak, mutasaddildan milliy jurnalistikamiz va uning chin fidoyilari va ustozlari haqida to'liq ma'lumot beradigan yana bir necha jildli kitoblarni kutib qolamiz.



oxiri — XX asr boshlari), "Ikkinchi jahon urushi davri jurnalistikasi", "Turg'unlik davri jurnalistikasi: murakkab siyosiy jarayon va matbuotdagi evrilishlar", "Qayta qurish va oshkorlik davri jurnalistikasi", "Mustaqillik davri o'zbek matbuoti", "O'zbekiston fotojurnalistikasidan lavhalar", "Mustaqillik yillari televideniyesi va radiosi", "O'zbekiston internet jurnalistikasi" deb nomlangan davr va yo'nalishlarni o'z ichiga oldi.

Bu bo'limlarning har birida o'zbek matbuotining muhim pillapoyalari, sohaga xizmati singgan tanikli jurnalistlar faoliyati

haqida muxtar ma'lumotlar, ularning turli yillarda, turli gazeta va jumallarda, turli janrlarda e'lon qilingan jurnalistik materiallari bilan tanishish mumkin bo'ladi.

— Milliy jurnalistikamiz shakllanishi va takomilining asosi o'rta asrlarga borib taqaladi, — deydi filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov. — Burhoniddin Rabg'uziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulq'oziy Bahodirxon, Muhammad Rizo Ogahiy kabi buyuk bobolarimiz tomonidan yaratilgan, o'sha zamon ruhiyati, voqeligi yoritilgan ko'plab asarlarda badiiy publitsistik yoki tarixiy publitsistik talqin xususiyatlarini kuzatish mumkin.

To'plam orqali biz milliy jurnalistikamizning o'z yo'li, o'z maktabi borligini, o'zbek jurnalistikasi umuminsoniyligi qadriyatlariga suyangan holda milliylikni asrab-aylash yo'lida xizmat qilib kelayotganini yana bir bor anglaymiz.

Albatta, ilk tajriba sifatida nashrga tayyorlangan mazkur kitobda muayyan kamchilik va noqliklilar bo'lishi, sohada o'z o'rminga ega yoki milliy jurnalistikamiz rivojiga katta hissa qo'shgan ayrim ustozlar to'plamga kirmay qolgan bo'lishi mumkin. Mutasaddilar bildirishgan bu boradagi ishlar davom ettirilib, kitobning 3- va 4-jildlarini ham nashr etish rejalashtirilgan. Demak, mutasaddildan milliy jurnalistikamiz va uning chin fidoyilari va ustozlari haqida to'liq ma'lumot beradigan yana bir necha jildli kitoblarni kutib qolamiz.

Nodir MAHMUDOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyyati DM

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihattan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 746.

34972 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Sherzod Mahmudov

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri, Shahrizabz ko'chasi, 85-uy